



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

**Q'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING
29 YILLIGIGA BAG'ISHLANADI**

MAXSUS SON / 2021

I QISM



TAHRIR HAY'ATI:

N. SALAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

I. ERGASHEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

U. MUXAMEDOV

Toshkent shahar adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari – Toshkent shahar yuridik texnikumi direktori, yuridik fanlar doktori, professor

S. GULYAMOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro xususiy huquq" kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

O. OKYULOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik huquqi" kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

M. AXMEDSHAYEVA

Toshkent davlat yuridik universiteti "Davlat va huquq nazariyasi" kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

U. TUXTASHEVA

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

SH. SAYDULLAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ommaviy huquq" fakulteti dekani, yuridik fanlar nomzodi, professor

X. XAYITOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasi mudiri, yuridik fanlar doktori

SH. XO'JAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Intellektual mulk" kafedrasi mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

D. XABIBULLAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasi mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

SH. ISMOILOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Mehnat huquqi" kafedrasi mudiri, yuridik fanlar doktori

G. TULAGANOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat-protsessual huquqi" kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

N. RAXMONKULOVA

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti "Xalqaro xususiy huquq va fuqarolik huquqi fanlari" kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar doktori

J. NEMATOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ma'muriy va moliya huquqi" kafedrasi professori v.b., yuridik fanlar doktori

G. UZAKOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ekologiya huquqi" kafedrasi mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

A. MUXAMEDJANOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va inson huquqlari" kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

R. KUCHKAROV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Umumta'lim fanlar va madaniyat" kafedrasi dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

SH. XAYDAROV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish" kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

SH. ASADOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasi professori v.b., yuridik fanlar doktori

D. XUDOYNABAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasi o'qituvchisi – mas'ul muharrir

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali

"Юриспруденция" правовой научно-практический журнал

"Jurisprudence" legal scientific-practical journal

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvoohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-1938

© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA
TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 5 **AXMEDSHAYEVA MAVLUDA AXATOVNA**
Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ.
MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 11 **NEMATOV JO'RABEK NEMATILLOYEVICH**
O'zbekistonda ma'muriy sudning ijro
hokimiyati ustidan sud nazorati subyekti
sifatidagi o'rni: sudga taalluqli ishlar
misolidagi tahlil
- 17 **BABADJANOV ATABEK
DAVRONBEKOVICH**
Mahalliy davlat hokimiyati vakillik
organlarining siyosiy partiya guruhlarini faoliyat
samaradorligini baholash mezonlari
- 24 **TURABOYEV IXTIYORJON QOBILOVICH**
O'zbekiston Respublikasida islom moliyasining
huquqiy asoslarini yaratish masalalari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 29 **ХУЖАЕВ ШОХЖАХОН АКМАЛЖОН УГЛИ**
Правовой статус блогера в Республике
Узбекистан
- 37 **РАДЖАПОВ ХУСАИН МУХАММАД УГЛИ**
Концептуальные аспекты картельных
сговоров на рынке: зарубежный опыт
- 48 **YULDASHOV ABDUMUMIN
ABDUGOPIROVICH**
Mualliflik huquqi muhofazasini ta'minlashning
zamonaviy usullari: blokcheyn texnologiyasi
misolida
- 55 **БАБАЖАНОВА ДИНАРА ИСЛАМОВНА**
Соотношение усыновления и суррогатного
материнства в рамках отечественной и
зарубежной фамилистики
- 64 **MEXMONOV QAMBARIDDIN
MIRADXAMOVICH**
Ixtironing fuqarolik-huquqiy rejimi

- 74 **IBRAGIMOVA AZIZA RUZIBOYEVNA**
Tabiiy monopoliya sohalarida raqobat muhitini shakllantirishning nazariy-huquqiy masalalari
- 82 **SHUKRULLAYEV SIYOVUSH ULUG'BEK O'G'LI**
Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish
- 90 **XALILOVA ZEBINISO ERKINOVNA**
Arbitraj huquqini o'qitish: asosiy maqsadlar
- 98 **БАТИРОВА КАМОЛА ЮСУПОВНА**
ICO и STO как способы привлечения финансовых средств и их правовые особенности
- 107 **USMONOVA MUNISKHON YULDOSH KIZI**
Legal support for the assessment of an individual's understanding of the consequences of his actions on the basis of artificial intelligence
- 113 **QALANDAROV AMINJON AMONDULLAYEVICH**
Tadbirkorlik faoliyati huquqiy asoslari va muvaffaqiyatsizlik
- 123 **РАХМОНОВА МОХИЧЕХРА НОДИРБЕК КИЗИ**
Сравнительный анализ законодательства Узбекистана и стран ЕС в сфере правового регулирования блокчейна и криптовалют
- 134 **TURDIALIYEV MUHAMMAD ALI PO'LATJON O'G'LI**
Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatidagi ayrim mavjud muammolar va ularning huquqiy tahlili
- 141 **TOJIBOYEV SARVAR ZAFAROVICH**
Fair and equitable treatment standard in tobacco control disputes in light of philip morris sarl v uruguay case: implications and lessons to tobacco regulation in Uzbekistan

UDC: 34(042)(575.1)
ORCID: 0000-0003-3719-6599

KONSTITUTSIYA – DAVLATNING ASOSIY QONUNI

Axmedshayeva Mavluda Axatovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Davlat va huquq nazariyasi” kafedrası professori,
yuridik fanlar doktori,
e-mail: mavludaahmedshaeva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada har bir davlatning asosiy qonuni bo'lgan Konstitutsiya, uning yuridik va siyosiy mazmun mohiyati, huquq tizimida tutgan o'rnini kabi masalalar bugungi zamonaviy huquq va milliy huquq voqeliklari asnosida ko'rib chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'zida nafaqat milliy davlat-huquqiy rivojlanish yutuqlarini, balki jahondagi eng ilg'or davlatlar konstitutsiyaviy rivojlanishi natijalari, boy tajribasini ham o'zida ifoda etishi ta'kidlangan. Muallif konstitutsiya joriy qonunchilik rivoji uchun huquqiy zamin, asos sifatida xizmat qilishini konstitutsiyaviy normalar va ularning keyinchalik amaldagi qonunchilikda o'zining mufassal ifodasini topishini misollar asosida tavsiflashga uringan. Maqolada konstitutsiya nafaqat o'ta nufuzli siyosiy-huquqiy hujjatgina bo'lib qolmasdan, balki har bir xalqning asrlar osha rivojlanib kelgan davlat-huquqiy hamda ma'naviy tafakkurining mevasi ham ekanligi ta'kidlangan. Konstitutsiya, ayni paytda, jamiyatda yuz berayotgan tub o'zgarishlarni, yangi rivojlanish bosqichlarini o'zida aks ettirib borishi, shu munosabat bilan vaqti-vaqtida Asosiy Qonunga tegishli o'gartirishlar kiritib borish zarurligi asoslantirilgan. Maqolada jamiyat, davlat va aholi hayotida va huquqiy ongida yuz berayotgan jiddiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda, muallif tomonidan konstitutsiyaviy normalarni yangilash va takomillashtirish yuzasidan ayrim taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, konstitutsiyaviy norma, xorijiy tajriba, qonun, jamiyat, davlat, shaxs, konstitutsiyaviy rivojlanish, konstitutsiya va qonun ustuvorligi, konstitutsiyaviy islohot.

КОНСТИТУЦИЯ КАК ОСНОВНОЙ ЗАКОН ГОСУДАРСТВА

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна,
доктор юридических наук,
профессор кафедры “Теория государства и права”
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье в контексте глобального и национального права рассмотрена Конституция как Основной закон каждого государства, сущность ее правового и политического содержания, ее место в правовой системе. Отмечается, что Конституция Республики Узбекистан отражает не только достижения национального государственно-правового развития, но и результаты конституционного развития передовых стран и их богатый опыт. Автор попытался на примерах раскрыть тот факт, что Конституция служит правовой основой развития действующего законодательства, конституционных норм и их последующего детального выражения в действующем законодательстве. В статье отмечается, что Конституция является не только весьма значительным политико-правовым документом, но и плодом многовекового правового мышления, государственно-правового и духовного мышления каждого народа. При этом Конституция исходит из того, что в ней отражаются коренные изменения, происходящие в обществе, новые этапы развития, и в связи с этим необходимо периодически вносить изменения в Конституцию. В статье с учетом существенных изменений в жизни и правосознании общества, государства и населения автор выдвигает некоторые предложения и рекомендации по обновлению и совершенствованию конституционных норм.

Ключевые слова: Конституция, конституционная норма, зарубежный опыт, право, общество, государство, личность, конституционное развитие, Конституция и правовое государство, конституционная реформа.

THE CONSTITUTION IS THE BASIC LAW OF THE STATE

Akhmedshaeva Mavluda Akhatovna,

Professor of the Theory and history of State and law department of
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law

Abstract. *The article examines the essence of legal and political content of the Constitution, the Basic Law, its place in the legal system in the context of modern legislation and national law. It is noted that the Constitution of the Republic of Uzbekistan reflects not only the achievements of national state and legal development, but also the results of the constitutional development of developed countries and their advanced experience. The author tries to apply examples to reveal the fact that the Constitution serves as a legal basis for the development of current legislation, constitutional norms and their subsequent detailed expression in the current legislation. The article reminds that the Constitution is not only a significant political and legal act, but also the result of centuries-old legal and spiritual conception on legal state of every nation. At the same time, the Constitution proceeds from the fact that it reflects fundamental changes taking place in society, new stages of development, and in this regard, it is necessary to periodically amend the Constitution. Considering significant changes in the life and legal consciousness of society, the state and the population, the author puts forward some proposals and recommendations for updating and improving constitutional norms in this article.*

Keywords: *Constitution, constitutional norm, foreign experience, law, society, state, personality, constitutional development, Constitution and rule of law, constitutional reform.*

Har bir davlat huquqiy tizimida asosiy qonun hisoblanadigan Konstitutsiyaning o'рни va roli o'ziga xos. Bunday maqom ushbu nufuzli hujjatda davlat va jamiyat qurilishining, shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarining eng muhim bazaviy qoidalarini o'zida jamlagan normalardan iboratligidan kelib chiqib, shakllangan.

Shu o'rinda "konstitutsiya" so'zining kelib chiqishi va ma'nosiga biroz to'xtalish maqsadga muvofiq. Konstitutsiya so'zi lotincha "constitutio" iborasidan olingan bo'lib, "tizim", "ta'sis etish", "barpo etish" kabi ma'nolarni anglatadi. Holbuki, konstitutsiya atamasi doimo ham asosiy qonun ma'nosini anglatmagan. Buyuk Rim imperiyasi davrida ushbu atama imperatorlarning chiqargan turli oliy maqomdagi, ya'ni ediktlar, dekretlar, mandatlar va reskriptlar kabi hujjatlarini anglatgan. Keyinchalik esa ushbu so'z uzoq vaqt davomida "status" ma'nosiga yaqin mazmunda ishlatilgan. Akademik Akmal Xolmatovich Saidov o'zining fundamental mazmundagi "O'zbekiston Konstitutsiyasi tarixi" nomli asarida ko'rsatganidek, Rim imperatori Karakalla 212-yilda chiqargan ediktlaridan birini "status" deb atagan. Bugungi kunda konstitutsiya atamasi zamonaviy davlatlarning asosiy qonuni bo'lgan eng nufuzli yuridik-siyosiy hujjatni anglatadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi o'z mazmuni, tuzilishi hamda demokratik xarakteriga ko'ra jahon

konstitutsiyalari ichida o'zining munosib o'rniga ega. Asosiy Qonunimizning demokratik xarakteri ko'plab xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etilgan. Jumladan, Fransiyadagi Sharq sivilizatsiyalari milliy universiteti professori, siyosatshunos Katrin Pujelning e'tiroficha, "Jahon hamjamiyatida O'zbekistonning roli va o'рни tobora oshib borayotgan sharoitlarda mamlakat Konstitutsiyasi ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash ishida, asosiysi, mamlakatning izchil iqtisodiy rivojlanishi va xalq farovonligi oshishida real huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Konstitutsiyasi mustaqillik qo'lga kiritilganidan keyin juda qisqa muddatlarda ishlab chiqilgani va qabul qilinganini alohida ta'kidlash joiz. Asosiy Qonunni ishlab chiqishda o'zbek davlatchiligi rivojlanishining boy tarixiy yo'li, konstitutsiyaviy qurilishning zamonaviy g'oyalari, universal demokratik tamoyillar hamda dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning ilg'or konstitutsiyaviy tajribasi hisobga olingan" [1].

O'zbekiston Konstitutsiyasi mustaqil davlatimizning asosiy qonuni sifatida muayyan rivojlanish bosqichlarini bosib o'tib kelmoqda. U mamlakatimizda o'tkazilgan va bugungi kunda olib borilayotgan chuqur islohotlarga, yangilanish jarayonlariga, chinakam adolatli demokratik davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidagi sa'y-harakatlarga huquqiy zamin, "yo'lchi yulduz" rolini bajarib kelmoqda.

Ta'kidlash joizki, mustaqillikka erishgan postsotsialistik davlatlar qatorida O'zbekiston ham konstitutsiyani milliy davlatchilik tajribasi, milliy qadriyatlar hamda konstitutsiyaviy rivojlanish borasida jahonda erishilgan yutuqlarga tayangan holda ishlab chiqdi.

Shu bois postsotsialistik makondagi davlatlar konstitutsiyalari o'zida konstitutsiyaviy fikr va amaliyotning eng yaxshi yutuqlarini o'zida aks ettiradi. Binobarin, ushbu konstitutsiyalarda u yoki bu darajada konstitutsiyaviy rivojlanishning zamonaviy xususiyatlaridan bo'lgan demokratlashtirish va insonparvarlik, inson huquqlari kafolatlarining kuchayishi, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, turli guruhlar, qatlamlar va toifalar manfaatini uyg'unlashtirish mexanizmlarining rivojlanishi hamda davlat boshqaruvi organlarining samaradorligini oshirish kabi umumjahon qonuniyatlariga bo'ysunishini ko'rishimiz mumkin [2].

Xalqaro hamjamiyatning to'la huquqli a'zosi bo'lgan O'zbekiston Konstitutsiyasi o'zida xalqimizning adolatli davlat va adolatli boshqaruv, insonlar va hokimiyat o'rtasidagi maqbul munosabatlar haqidagi asriy orzu va intilishlarini ifoda etadi. Buyuk bobokalonlarimizdan Yusuf-Xos Hojib Boloso'g'inning "Qutadg'u bilig" [3], Al-Forobiyning "Fozil odamlar shahri" [4], buyuk Sohibqiron Amir Temurning "Temur tuzuklari" [5], Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" [6], Zaxiriddin Boburning "Boburnoma" [7] asarlarida ifodalangan orzu-intilishlar, g'oyalar Asosiy Qonunimizda o'zining ifodasini topgan. Binobarin, Asosiy Qonun o'z normalarida jamiyatning iqtisodiy, huquqiy, siyosiy va madaniy rivojining, xalq mentalitetining erishilgan darajasini o'zida aks ettirish barobarida xalqning ma'naviy-huquqiy rivojlanishi ifodasi sifatida maydonga chiqadi.

Zotan bu nufuzli hujjat bir paytning o'zida, bir tomondan, muayyan jamiyat, xalq va davlatning shu paytgacha erishgan marralarini, ikkinchi tomondan esa erishishga intilayotgan "dovon"larni, rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi.

Shu bois konstitutsiyaviy normalar alohida maqomga ega bo'lib, ushbu normalar yuqori darajada umumlashganlik hamda o'z mazmuniga ko'ra ta'sis etish, tartibga solish va muhofaza etish xususiyatiga ega. Shu tariqa konstitutsiyaviy normalar joriy qonunchilikning rivojlanishiga turtki vazifa-

sini bajaradi. Konstitutsiyaning huquq tizimi rivojidagi o'rniga alohida e'tibor qaratish zarur.

Chunki Asosiy Qonun o'zida jamiyat, davlat va shaxsga oid eng muhim, eng umumiy munosabatlarni o'zida mujassam etadi. Konstitutsiyadan joy olgan nufuzli normalar keyinchalik qonunlarda va qonunosti hujjatlarida o'zining ancha kengaytirilgan, batafsil ifodasini topadi. Shu bois konstitutsiyaviy normalar alohida maqomga ega bo'lib, ushbu normalar yuqori darajada umumlashganlik hamda o'z mazmuniga ko'ra ta'sis etish, tartibga solish va muhofaza etish xususiyatiga ega. Shu tariqa konstitutsiyaviy normalar joriy qonunchilikning rivojlanishiga turtki vazifasini bajaradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida "Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniş huquqiga egadir.

Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi", deb mustahkamlab qo'yilgan [8]. Ushbu konstitutsiyaviy norma mazmun-mohiyati O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida [9], O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida" [10], "Mehnat muhofazasi haqida" [11], "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi [12] kabi qonunlarda, Hukumat qarorlarida, masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-maydagi "O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 349-son qarori [13] va ko'plab qonunosti hujjatlarida o'zining aniq, mufassal ifodasini topgan.

Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdiki, Asosiy Qonunning har bir moddasi asosida, ushbu modda belgilangan doirada va mazkur normani hayotga tatbiq etish uchun keyinchalik tegishli qonunchilik hujjatlari qabul qilinadi va joriy qonunchilik rivojlana boradi.

Konstitutsiya mamlakatda olib borilayotgan barcha yangilanish, rivojlanish jarayonlariga huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligi munosabati bilan O'zbekiston xalqiga yo'llagan tabrigida ta'kidlaganidek, "Hayotimiz qomusi bo'lgan Konstitutsiyamiz mustaqillik yillarida erishgan barcha yutuq va marralarimizning mus-

tahkam huquqiy poydevori bo'lib kelayotganini hammamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz" [14].

Konstitutsiyaning huquq tizimida alohida, o'ziga xos maqomga ega bo'lishini belgilaydigan omillardan biri sifatida mamlakatda Konstitutsiya va qonunning ustunligini ko'rsatish lozim. Konstitutsiyamizning 15-moddasida mustahkamlab qo'yilgan [15]. Unga ko'ra, mamlakatda Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi so'zsiz tan olinadi. Xo'sh buning ma'nosi nimada ko'rinadi? Konstitutsiyaning norma va qoidalariga bironta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat zid kelishi mumkin emas. Shuningdek, Asosiy Qonunning bironta ham qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas. Ayni paytda jamiyat, davlat va xalq hayotida yuz berayotgan tub o'zgarishlar davlatning Asosiy Qonunida o'z ifodasini topib bormog'i kerak. Darhaqiqat, "O'tgan qisqa davrda jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy manzarasi butunlay o'zgardi. Erkinlik va ochiqlik, qonun ustuvorligi, jahon hamjamiyati bilan o'zaro manfaatli hamkorlik davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi" [14].

Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga jamiyat, xalq va davlat rivojining bugungi kuni darajasini, yangi shakllangan siyosiy-huquqiy qadriyatlarga hamohang bo'lgan o'zgartirishlarni kiritish zarurati paydo bo'ldi. Konstitutsiyaning yangilash o'ta murakkab huquqiy-siyosiy jarayon ekanligi ayondir. Davlat rahbari ta'kidlaganidek, "Albatta, Konstitutsiyaning yangilashdek g'oyat muhim, strategik vazifani hal etishda biz yetti marta emas, yetmish marta o'ylab, xalqimiz bilan har tomonlama maslahatlashgan holda, yurtimiz va jahondagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganib, aniq qaror qabul qilishimiz zarur" [14].

Aytish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'zida nafaqat xalqning ruhini, uning asriy intilishlarini, balki umumiy tarzda konstitutsiyaviy rivojlanishning yuqori darajasini aks ettirgan, chunki ushbu hujjat zamonaviy davlat-huquqiy rivojlanishning umuminsoniy, umumdemokratik qadriyatlariga tayanadi. Bino-barin Asosiy Qonunimiz rivojlangan demokratik davlatlar konstitutsiyalarining xalq hokimiyatchiligi, demokratik saylovlar, davlat hokimi-

yatining bo'linishi, xalqaro huquq normalarining milliy huquqdan ustuvorligi, davlat organlarining xalq oldida javobgar va hisobdor ekanligi, inson huquqlari ustuvorligi kabi eng ilg'or g'oya va muhim qoidalarini o'zida ifoda etgan [1].

Shunday qilib, Asosiy Qonun sifatidagi Konstitutsiya o'zida nafaqat muayyan davlat va jamiyatning o'z rivojida erishgan darajasini, balki kelajakda amalga oshirilishi zarur bo'lgan muhim vazifalarni ham aks ettiradi.

Ayni paytda Konstitutsiyaning yangilashdek g'oyat muhim, strategik vazifani hal etishda biz yetti marta emas, yetmish marta o'ylab, xalqimiz bilan har tomonlama maslahatlashgan holda, yurtimiz va jahondagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganib, aniq qaror qabul qilishimiz zarur [14].

Shu o'rinda amaldagi Konstitutsiyaga qay-si masalalar bo'yicha o'zgartirishlar kiritilishi kutilmoqda? – degan savol tug'ilishi tabiiy. O'zbekiston Prezidenti Konstitutsiyaga kiritilishi zarur bo'lgan masalalar doirasini aytib o'tdi. Rivojlanishimizning hozirgi bosqichida Konstitutsiyamizga avvalgi "davlat – jamiyat – inson" prinsipi o'rniga "inson – jamiyat – davlat" deb o'zgartirish, iqtisodiy islohotlarning inson manfaatiga xizmat qilishini; "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori" degan g'oya doirasida fuqarolik jamiyati institutlarining o'rne va maqomini; oila institutini rivojlantirish, ezgu insoniy qadriyatlarni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash; yoshlarning huquq va manfaatlarini to'la ta'minlash maqsadida yoshlar sohasidagi davlat siyosati, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalasi, ularning huquq va burchlarini konstitutsiyaviy darajada aks ettirish; "Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat" tamoyilini; inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha amaldagi tizimning samarasini oshirish maqsadida bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik, nogironlar, keksa avlod vakillarining huquqlarini ishonchli himoya qilish masalalari; ekologiyaga oid maxsus boblar kiritish hamda ta'lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish Asosiy Qonunimizda o'zining konstitutsiyaviy ifodasini topishi va tegishli norma va boblarda mustahkamlanishi kerak.

Ayni chog'da mamlakatimizning qonun ustuvorligi, huquq ustunligi "rule of law" borasida erishgan muayyan yutuqlari ham Asosiy Qonunimizda mustahkamlab qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Binobarin, taniqli huquq nazariyotchisi S.S. Aleksevning ta'biricha, huquq ustunligi g'oyasi – "o'zining mohiyatiga ko'ra huquqning hokimiyat, davlatga nisbatan so'zsiz ustuvorligini anglatadi" [16].

Huquq ustunligi o'z ichiga, davlat va jamiyat hayotining barcha muhim masalalariga huquq va qonun nuqtayi nazaridan qarash va hal etishni, umuminsoniy axloqiy-huquqiy qadriyatlar va davlat faoliyatini oqilona uyg'unlashtirishni, davlat va jamoat organlarining har qanday qarorlarini g'oyaviy-huquqiy jihatdan asoslashni hamda har qanday davlatda insonlarning huquqlarini ta'minlashning ishonchli vositalari mexanizmi mavjudligini o'z ichiga oladi va taqozo etadi [17].

Bundan tashqari, keyingi yillarda mamlakatimizda jamiyatning demokratik asoslarini mustahkamlash va inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ayniqsa, davlat hokimiyati va davlat organlari faoliyatini tobora xalqqa yaqinlashtirish borasida amalga oshirilayotganligi, jumladan, davlat organlari faoliyatini baholashning asosiy mezonini qilib, aholining turmush muammolarini real hal etishi qilib belgilanganligi e'tiborga loyiq.

Aholining kundalik turmush muammolarini hal etishda Davlat rahbarining, Bosh vazir, vazirliklar va boshqa davlat organlarining virtual qa-

bulxonasi, joylardagi xalq qabulxonalari, bugungi kunda aholi bilan muloqotda bo'lish va uning hayotiy masalalarini hal etishning yangi samarali shakli, xalq hokimiyatchiligining yangi formati sifatida maydonga chiqmoqda. Aholi bilan davlat organlarining orasida yaqinlashuv jarayonlari – nazarimizda keyingi yillarning muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi. Yana shu holat aniqki, demokratik rivojlanish yo'lida mamlakatimizda amalga oshiriladigan ishlarining ko'lami katta. Davlat rahbari aytganidek, "Taraqqiyot strategiyasida o'z aksini topayotgan, adolatli va xalqparvar davlat barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadigan vazifalarni amalga oshirish uchun, avvalo, yangi konstitutsiyaviy makon hamda yanada mustahkam qonunchilik bazasi kerak bo'lishini, o'ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz. Shu ma'noda, Asosiy Qonunimizni jamiyatdagi bugungi real voqelikka, shiddatli islohotlarimiz mantig'iga moslashtirish, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratish muhim vazifaga aylanmoqda".

Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, mustaqil davlatchilik ifodasi bo'lgan Konstitutsiya jamiyat va davlatimizning demokratik rivojlanish yo'lidagi sa'y-harakatlariga, Taraqqiyot strategiyasida ko'rsatilgan rejalarning amalga oshishiga nafaqat huquqiy zamin, balki dasturilamal rolini o'tashi shubhasiz.

REFERENCES

1. Saidov A. O'zbekiston Konstitutsiyasi tarixi [History of the Constitution of Uzbekistan]. Tashkent, Tasvir Publ. house, 2018, p. 15.
2. Xabrieva T.Y. Teoriya sovremennogo osnovnogo zakona i rossiyskaya Konstitutsiya [The theory of the modern basic law and the Russian Constitution]. Jurnal rossiyskogo prava – Journal of Russian Law, 2008, no. 12, pp. 15–23.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig [Good luck]. Available at: <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/yusuf-xos-hojib/>.
4. Al-Forobiy. Fozil odamlar shahri [A city of noble people]. Available at: <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/abu-nasr-forobiy-873-950/>.
5. Amir Temur. Temur tuzuklari [Temur's rules]. Available at: <http://www.temurtuzuklari.uz/uz/>.
6. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Available at: n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/.
7. Zaxiriddin Bobur. Boburnoma. Available at: <https://e-tarix.uz/shaxslar/726-maqola.html/>.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <https://www.lex.uz/acts/20596/>.
9. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi [Labor Code of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <https://lex.uz/docs/142859/>.

10. O'zbekiston Respublikasining aholi bandligi to'g'risida Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan on Employment]. Available at: <https://lex.uz/docs/5055690/>.
11. O'zbekiston Respublikasining Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida Qonuni (yangi tahriri) [Law of the Republic of Uzbekistan on labor protection (new edition)]. Available at: <https://lex.uz/docs/3031427/>.
12. O'zbekiston Respublikasining Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan on the Rights of Persons with Disabilities]. Available at: <https://lex.uz/docs/5049511/>.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-maydagi 349-son "O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori [Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated May 10, 2018 No 349 "On additional measures to eliminate forced labor in the Republic of Uzbekistan"]. Available at: <https://lex.uz/docs/3730223/>.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligi munosabati bilan O'zbekiston xalqiga qilgan tabrigi [Congratulations of the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev to the people of Uzbekistan on the occasion of the 29th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/4815/>.
15. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <https://www.lex.uz/acts/20596/>.
16. Alekseev S.S. Vosxojdenie k pravu. Poiski i resheniya [Rise to the right. Searches and solutions]. Moscow, Norma, 2001, p. 485.
17. Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, 2018, TSUL, p. 214.

UDC: 342.9(042)(571.1)
ORCID: 0000-0003-3406-0784

O'ZBEKISTONDA MA'MURIY SUDNING IJRO HOKIMIYATI USTIDAN SUD NAZORATI SUBYEKTI SIFATIDAGI O'RNI: SUDGA TAALLUQLI ISHLAR MISOLIDAGI TAHLIL

Nematov Jo'rabek Nematilloevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
"Ma'muriy va moliya huquqi" kafedrası
dotsenti, yuridik fanlar doktori,
e-mail: jura0404uzb@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlari va ular mansabdor shaxslarining qonunga zid qaror, harakat (harakatsizligi) yuzasidan ma'muriy sudga shikoyat qilish huquqini amalga oshirishning ayrim jihatlari tahlil qilingan. Maqolada ma'muriy sudlar tizimini isloh qilishga qaratilgan qonunchilikdagi o'zgarishlar keltirib o'tilgan. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida ma'muriy sudlar faoliyati bir muncha takomillashtirilishiga erishilgan bo'lsa-da, mazkur maqola doirasida tahlil qilingan ma'muriy sud ishlarini yuritishda sudga taalluqlilik masalasi hali hanuz eng bahsli va munozarali masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shunga ko'ra, maqolada sudga taalluqlilikning eng ko'p uchraydigan huquqiy muammolari tahlil qilingan. Jumladan, maqola doirasida fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar va ma'muriy sudlar o'rtasidagi, iqtisodiy sudlar va ma'muriy sudlar o'rtasidagi, harbiy sudlar va ma'muriy sudlar o'rtasidagi sudga taalluqli ishlarni ajratib olishning asosiy mezonlari ochib berilgan. Sud amaliyotida uchrayotgan ayrim muammoli masalalar yuzasidan ilmiy asoslantirilgan yechimlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: ma'muriy sudlar, sudga taalluqlilik, ma'muriy akt, ma'muriy xatti-harakat (harakatsizlik), ma'muriy tartib-taomillar, ma'muriy sud ishlarini yuritish, ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlar, fuqarolik-huquqiy nizo, davlat xizmatiga oid nizolar, ma'muriy-huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarga doir ishlarni, harbiy boshqaruv organlari va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, ma'muriy-huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar, davlat ijrochisining qarori (harakatlari, harakatsizligi).

РОЛЬ АДМИНИСТРАТИВНОГО СУДА КАК СУБЪЕКТА СУДЕБНОГО КОНТРОЛЯ НАД ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТЬЮ В УЗБЕКИСТАНЕ: НА ПРИМЕРЕ АНАЛИЗА ПОДВЕДОМСТВЕННОСТИ ДЕЛ

Нематов Журабек Нематиллоевич,
доктор юридических наук, доцент кафедры
"Административное и финансовое право"
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье анализируются некоторые аспекты права физических и юридических лиц на обжалование незаконных решений, действий (бездействий) государственных органов и их должностных лиц в административном суде. В статье приводится анализ изменений в законодательстве, направленных на реформирование системы административных судов. Отмечено, что, хотя реформы привели к некоторым улучшениям в функционировании административных судов, вопрос подведомственности дел в административном судопроизводстве по-прежнему остается одним из самых противоречивых. Соответственно, в статье анализируются наиболее часто встречающиеся правовые вопросы подведомственности дел в административном судопроизводстве. В частности, в статье раскрываются основные критерии разграничения подведомственных дел между административными судами и судами

по гражданским делам, экономическими, военными судами. Предложены научно обоснованные решения некоторых проблемных вопросов, встречающихся в судебной практике.

Ключевые слова: административные суды, подведомственность, административный акт, административное действие (бездействие), административные процедуры, административное судопроизводство, решения, не вытекающие из административных и иных публичных правоотношений, гражданско-правовые споры, споры в сфере государственной службы, дела по спорам, возникающим из административно-правовых отношений, решения органов военного управления и их должностных лиц, споры, возникающие из административно-правовых отношений, решения (действия, бездействие) государственного исполнителя.

THE ROLE OF ADMINISTRATIVE COURT IN UZBEKISTAN AS A SUBJECT OF JUDICIAL CONTROL OVER THE EXECUTIVE POWER: AN ANALYSIS BASED ON THE EXAMPLE OF JURIDICAL CASES

Nematov Jurabek Nematilloevich,

Associate Professor of Administrative and Finance
Law department of the Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law

Abstract. This article analyzes some aspects of the right of individuals and legal entities to appeal to the administrative court against illegal decisions, acts (omissions) of state bodies and their officials. Changes in legislation aimed at reforming the administrative court system were cited in the article. Although the reforms have resulted in some improvements in the functioning of the administrative courts, the issue of jurisdiction in the administrative litigation analyzed in this article is still one of the most controversial issues. Accordingly, the article analyzes the most common legal issues of litigation. In particular, the article reveals the main criteria for distinguishing between civil courts and administrative courts, between economic courts and administrative courts, between military courts and administrative courts. Scientifically based solutions have been proposed for some of the problematic issues encountered in judicial practice.

Keywords: administrative courts, jurisdiction, administrative act, administrative acts (omissions), administrative procedures, administrative litigation, decisions that do not arise from administrative and other public legal relations, civil law disputes, civil service disputes, cases on disputes arising from administrative-legal relations, decisions of military administration bodies and their officials, disputes arising from administrative-legal relations, decisions (acts, omissions) of the state executor.

2017-yil 1-iyundan O'zbekiston tarixida birinchi marotaba fuqarolik, jinoyat va iqtisodiy sudlardan alohida bo'lgan ma'muriy sudlarning joriy etilishi [1], shuningdek, O'zbekiston tarixida birinchi marotaba 2018-yil 8-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunining [2], 2018-yil 25-yanvarda esa Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning (MSIyTK) [3] qabul qilinishi bilan O'zbekistonda ma'muriy huquq rivojining mutlaq yangi, muhim bosqichi, davri boshlandi, desak hech mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Chunki ushbu yangiliklar rivojlangan xorijiy davlatlar standartlari darajasida hamda milliy qonunchilikning o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda, ma'muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning eng zamonaviy qoidalarini mamlakatimizda joriy etdi [4].

Ma'muriy sudlar tizimining O'zbekistonda bundan keyin ham takomillashib borishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizda sud-huquq islohotlarini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish va mavjud muammolar yechimini maqsad qilgan "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni ham asos bo'lib xizmat qilmoqda [5].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 107-moddasining birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 8-fevraldagi O'RQ-671-sonli Qonuni tahririda o'zgartirildi hamda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi O'RQ-703-sonli "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Natijada, viloyat darajasidagi jinoyat, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar va iqtisodiy sudlar umumiy yurisdiksiya sudlari sifatida birlashtirildi. Ma'muriy sudlar esa umumiy yurisdiksiya sudlaridan alohida sudlar sifatida saqlab qolindi.

Shuningdek, O'zbekistonda 2021-yil 1-yanvardan boshlab ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolati ma'muriy sudlardan jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga o'tkazildi [6].

Yangi joriy etilgan ma'muriy sudlar, o'z navbatida, nazariy va amaliy jihatdan yangi muammo va ijobiy o'zgarishlarni ham yuzaga keltirdi [7]. Jumladan, mazkur maqola doirasida tahlil qilinadigan ma'muriy sud ishlarini yuritishda sudga taalluqlilik masalasi ham eng bahsli va muhozarali bo'lib qolmoqda. Quyida mazkur muammolarning ayrimlari yuzasidan fikr yuritiladi.

Birinchi, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar va ma'muriy sudlar o'rtasidagi sudga taalluqli ishlar yuzasidan ham ayrim muammoli jihatlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik prosessual kodeksi (FPK) 26-moddasiga ko'ra, fuqarolik ishlari bo'yicha sudga fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy, yer to'g'risidagi va boshqa munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar bo'yicha ishlar taalluqlidir.

E'tibor berish lozimki, FPK 26-moddasidagi yer to'g'risidagi yoki mehnat munosabatlaridan yuzaga keladigan nizolarning huquqiy tabiati noaniqligicha qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida, sud amaliyotida ko'pgina muammolarga sabab bo'lmoqda. Gap shundaki, yer to'g'risidagi munosabatlar turlicha bo'lishi mumkin. Misol uchun, yer ajratish yoki yerni zaxiraga olish to'g'risidagi hokimning tegishli qarori yer to'g'risidagi munosabatlar doirasida amalga oshirilgan deb aytish mumkin bo'lsa-da, boshqa tomondan xuddi shu masala ma'muriy-huquqiy munosabatlar doirasidagi nizo deb aytish ham mumkin. Sud amaliyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, shu paytgacha yer ajratish yoki yerni zaxiraga olish to'g'risidagi hokimning tegishli qarori yuzasidan nizolar ma'muriy sudlarda ko'rib chiqilgan.

Nazarimizda, FPK 26-moddasidagi yer to'g'risidagi munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar jumlasini chiqarib tashlash lozim. Zero, yerga oid fuqarolik-huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarni umumiy ma'noda fuqarolik-huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar sifatida ko'rib chiqishda hech qanday muammo mavjud emas.

FPK 26-moddasidagi mehnat munosabatlari jumlasini ham muammoli jihat hisoblanadi. Gap shundaki, davlat xizmati yoki davlat fuqarolik xizmatiga oid nizolar rivojlangan davlatlar (jumladan, Germaniya, Yaponiya va boshqa)da

ma'muriy sud ish yurituvchi doirasida ko'rib chiqiladi. Chunki davlat xizmati hamda xususiy sektordagi mehnat shartnomalaridan yuzaga keladigan nizolarni bir xil deb aytish noto'g'ri. Bu masalalar bir-biridan keskin farq qiladi. Davlat xizmatida Mehnat kodeksida nazarda tutilgan mehnat shartnomalari tuzilmaydigan sohalar, misol uchun sudya, prokuratura organlari tezkor xodimlari, ichki ishlar va boshqalar ham mavjud. Shunday ekan davlat xizmati bilan bog'liq nizolarni mehnat munosabatlari sifatida fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga taalluqli deb aytish xato bo'ladi. Afsuski, bugungi kunda sud amaliyotida davlat xizmati bilan bog'liq nizolar ham mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan nizo sifatida ko'rilmog'da.

Fikrimizcha, FPK 26-moddasidagi mehnat munosabatlaridan yuzaga keladigan nizolar jumlasiga aniqlik kiritib davlat xizmatiga oid nizolar bundan mustasno ekanligini kiritish lozim. Zero, qabul qilinishi kutilayotgan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun loyihasida ham ushbu nuqtayi nazar o'z tasdig'ini topmoqda.

Bundan tashqari, FPK 26-moddasi 1-qism 6-bandidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlarning keltirib o'tilishi ham ko'pgina tushunmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Chunki korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan va bunday munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari chegarasini aniqlash qiyin. Misol uchun, korxona rahbarining qandaydir buyrug'i shu korxonada ishlovchi ishchining huquqlarini buzadigan bo'lsa, bunday nizo shundog ham mehnat nizosi sifatida umumiy tartibda ko'rib chiqiladi. Bu holat uchun FPK 26-moddasi 1-qism 6-bandida nazarda tutilgan qoidani o'rnatish talab etilmaydi.

Bundan tashqari, sud amaliyotida davlat muassasalari hisoblangan oliy ta'lim muassasalari bilan talabalar o'rtasidagi o'qishga qabul qilish va o'qishdan chetlatish bilan bog'liq nizolarni ham fuqarolik-huquqiy nizo sifatida tavsiflash qiyindir. Chunki davlat granti asosida o'qishga kiradigan talabalar mavjud bo'ladi yoki o'qishdan chetlatilgan talaba sudga ariza bilan murojaat qilganda univer-

sitet bilan shartnomada nazarda tutilgan shartlar bajarilishi yuzasidan nizolashmaydi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrda "Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 24-sonli qarorining 7-bandida *"tergov hibsonalari va jazoni ijro etish muassasalari mansabdor shaxslarining ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar, ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash haqidagi qarorlari va harakatlari MSiyTK 23-bobida nazarda tutilgan tartibda nizolashilishi mumkin, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksining 542-moddasida nazarda tutilgan tartibda hal qilinadigan masalalar bundan mustasno"*ligi keltirib o'tiladi. Bu o'rinda davlat muassasalari, ya'ni jazoni ijro etish muassasalari bilan mahkumlar o'rtasidagi intizomiy jazo choralari qo'llanilishiga oid nizolar ma'muriy sudlarga taalluqliligi keltiradi. Tabiiy savol yuzaga keladiki, davlat muassasasi hisoblangan oliy ta'lim muassasasining talabaga nisbatan qo'llaniladigan intizomiy jazo choralari yuzasidan nizolar nega endi ma'muriy sudga taaalluqli nizo hisoblanmasligi kerak. Nazarimizda, hozirgi sud amaliyoti bu o'rinda ham xatolikka yo'l qo'ymoqda.

Shunga ko'ra, fikrimizcha, FPK 26-moddasi 1-qism 6-bandida nazarda tutilgan qoidani chiqarib tashlash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, iqtisodiy sudlar va ma'muriy sudlar o'rtasidagi sudga taalluqli ishlar yuzasidan ham ayrim muammoli jihatlar mavjud.

Iqtisodiy-prosessual kodeksning (IPK) 25-moddasi 1-qism 1-bandida iqtisodiy sudga iqtisodiyot sohasidagi ma'muriy huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarga doir ishlar taalluqli ekanligini keltirib o'tiladi. Bu esa MSiyTK qoidalariga zid. Chunki ma'muriy sudlar aynan ma'muriy huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarni ko'rib chiqish uchun alohida tashkil etilgan sudlar hisoblanadi. Jumladan, IPK 27-bobi bo'lmish huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarga e'tibor bersak, ushbu nizolarning aksariyati sof ma'muriy huquqiy nizolar ekanini ko'rish mumkin. Misol uchun, litsenziya va ruxsatnomalar bilan bog'liq nizolar aslida "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risi-

da"gi Qonun 3-moddasiga ko'ra, litsenziya, ruxsat berish, ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillari ma'muriy organlarning manfaatdor shaxslarga nisbatan amalga oshiradigan ma'muriy-huquqiy faoliyatiga kiradi. Ushbu jihat haqida avval ham aytib o'tgan bo'lsak-da [8], I.M. Salimovanning ilmiy ishlarida ham o'xshash nuqtayi nazarni ko'rishimiz mumkin [9].

Shunday ekan, fikrimizcha, iqtisodiy sudlarga taalluqli ishlar doirasidan *ma'muriy-huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarga doir ishlarni, jumladan IPK 27-bobi bo'lmish huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarga chiqarish hamda ma'muriy sudlarga taalluqli ishlar sifatida belgilash taklif etiladi.*

Sud amaliyotida bahsli bo'lib kelayotgan yana bir muammolardan biri bu davlat ijrochisining qarori, harakat (harakatsizligi) bilan bog'liq nizolarning sudga taalluqliligi hisoblanadi.

MSiyTK 186-modda 2-qismiga ko'ra, davlat ijrochisining qarorini haqiqiy emas, harakatlari (harakatsizligini) qonunga xilof deb topish to'g'risidagi ariza (shikoyat) manfaatdor shaxsga o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risida ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran o'n kun ichida sudga berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni 86-1-moddasiga ko'ra, *"iqtisodiy sud tomonidan berilgan ijro hujjati bo'yicha davlat ijrochisining chiqargan qarori ustidan undiruvchi yoki qarzdor tomonidan ijro hujjatini bergan iqtisodiy sudga yoki bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga, mansabdor shaxsga, qaror chiqarilganligi haqida xabar qilingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda shikoyat berilishi mumkin. Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilmagan hollarda davlat ijrochisining qarori ustidan qaror chiqarilganligi haqida xabar qilingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda davlat ijrochisi joylashgan yerdagi umumiy yurisdiksiya sudiga yoki bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga, mansabdor shaxsga shikoyat beriladi"*.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrda "Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 24-sonli qarorining 9-ban-

didada esa *“Davlat ijrochisining qarori, harakatlari (harakatsizligi) ustidan MSIYtK 23-bobida nazarda tutilgan tartibda shikoyat qilinadi, iqtisodiy sud tomonidan berilgan ijro hujjati bo'yicha chiqarilgan qarorlar bundan mustasno”* deb keltirilmoqda.

U borada sud amaliyotida bir-birini inkor etuvchi yondashuvlar yuzaga kelayotganligini ko'rish mumkin. Misol uchun, *iqtisodiy sud tomonidan berilgan ijro hujjati bo'yicha davlat ijrochisining harakat (harakatsizligi) yuzasidan qaysi sudga shikoyat qilinishi mumkin degan savol yuzaga keladi.*

Bu borada, yuqorida keltilgan O'zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risid”gi Qonuni 86-1-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrda 24-sonli qarori 9-bandiga nazar tashlasak, bu toifadagi ishlar ma'muriy sudga taalluqlidir. Lekin masalaga bunday yondashish qanchalik to'g'ri va sudga taalluqlilikning qoidalariga muvofiq, degan savol ham yuzaga keladi. Tasavvur qiling, bir ish doirasida davlat ijrochisining qarori yuzasidan nizolar iqtisodiy sudga, xuddi shu ishda davlat ijrochisining harakat (harakatsizligi) yuzasidan nizolar ma'muriy sudga ko'rilsa, sud qarorlarining bir-biriga muvofiqligi va bu toifadagi ishlar yuzasidan yagona sud amaliyoti shakllantirib bo'ladimi? Fikrimizcha, masalaga yondashuvni o'zgartirish lozim. Chunki MSIYtK 186-moddasi 2-qismi mazmunida davlat ijrochisining qarorini haqiqiy emas, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashishga oid ishlar ma'muriy sudlarga taalluqli ekanligini tushunish mumkin. MSIYtKning nisbatan oxirgi qabul qilingan qonun ekanligini nazarga oladigan bo'lsak ham, 2021-yil 20-apreldagi O'zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonuni 18-moddasi talabiga ko'ra, *“teng yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovutlar bo'lgan taqdirda, keyinroq qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat qoidalarini amal qiladi”.*

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida”gi Qonuni 86-1-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrda 24-sonli qarori 9-bandiga tegishli o'zgartishlar kiritib, davlat ijrochisining qarorini haqiqiy emas, harakatlari (harakatsizli-

gi) yuzasidan nizolashishga oid barcha ishlarning ma'muriy sudlarga taalluqli ekanligini o'rnatib qo'yish lozim [10].

Uchinchidan, harbiy sudlar va ma'muriy sudlar o'rtasidagi sudga taalluqli ishlar yuzasidan ham ayrim muammoli jihatlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi O'RQ-703-sonli “Sudlar to'g'risida”gi Qonuni 45-moddasi 1-qismiga ko'ra harbiy sudlarga harbiy boshqaruv organlari qarorlari, harbiy mansabdor shaxslarning harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyatlarni ko'rib chiqish taalluqliligi keltirib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrda 24-sonli qarorining 10-bandida “harbiy boshqaruv organlari va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi), shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar chaqiruv komissiyalarining qarorlari ustidan shikoyatlar harbiy sudlar tomonidan ko'riladi” deb aytilsa-da, sud amaliyotida harbiy xizmatchi hisoblanmaydigan fuqarolarning harbiy boshqaruv organlari va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashishga oid nizolar qaysi sudlarga taalluqliligi yuzasidan savollar yuzaga kelmoqda.

Nazarimizda, harbiy xizmatchi hisoblanmaydigan fuqarolarning harbiy boshqaruv organlari va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashishga oid nizolar ma'muriy sudlarga taalluqlidir. Chunki bu o'rinda harbiy xizmatchi yo'q va munosabat ma'muriy-huquqiy munosabat hisoblanadi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, ma'muriy sudlar mamlakatimizda nisbatan yangi sudlar hisoblangani bois, sudlovga taalluqlik borasida yuqorida tahlili keltirilgan masalalar muhim ahamiyat kasb etadi va kelgusida ham bu boradagi qonunchilik, sud amaliyoti hamda ma'muriy sudlovning nazariy asoslarini takomillashtirib borish muhim hisoblanadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4966-son Farmoni [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4966 of February 21, 2017 "On measures to radically improve the structure and efficiency of the judicial system of the Republic of Uzbekistan"]. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – National Legislative Database, 29.09.2017, no. 06/17/5195/0033/.
2. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi O'RQ-457-son Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-457 of January 8, 2018 "On Administrative Procedures"]. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – National Legislative Database, 09.01.2018, no. 03/18/457/0525.
3. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 25-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksini tasdiqlash haqida"gi O'RQ-462-son Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-462 of January 25, 2018 "On approval of the Code of Administrative Procedure of the Republic of Uzbekistan"]. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – National Legislative Database, 26.01.2018, no. 03/18/462/0626.
4. Nematov J. Some issues of perception, interpretation of administrative law and legal education in modern Uzbekistan. *Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of legal sciences*, 2019, no. 1, pp. 96-102.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6034-son Farmoni [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6034 of July 24, 2020 "On additional measures to further improve the work of courts and increase the efficiency of justice"]. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – National Legislative Database, 24.07.2020, no. 06/20/6034/1103.
6. Nematov J., Astanov Sh. O'zbekistonda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishni isloh qilish masalalari [Issues of reforming the judicial process of administrative offenses in Uzbekistan]. *Huquqiy tadqiqotlar jurnali – Journal of Legal Studies*, 2020, no. SI2, pp. 359-364.
7. Nematov J. Administrativnoye sudoproizvodstvo v Respublike Uzbekistan i Yaponii: sravnitelno-pravovoy analiz [Administrative law enforcement in the Republic of Uzbekistan and Japan: comparative and legal analysis]. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Oliy o'quv kurslari axborotnomasi – Bulletin of Higher Education Courses of the General Prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan, 2017, no. 1 (29), pp. 23-25.
8. Nematov J. Ma'muriy sud ish yurituvda sudlovga taalluqlilik [Judicial relevance in administrative proceedings]. *Odillik mezonlari – Criteria of fairness*, 2020, no. 6. p. 48.
9. Salimova I.M. Iqtisodiy nizolarning taalluqliligi (nazariy-huquqiy va prosessual jihatlar). *Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati* [Relevance of economic disputes (theoretical, legal and procedural aspects). Abstract of the doctoral dissertation in law]. Tashkent, 2020, p. 22.
10. Nematov J. New administrative law reforms in Uzbekistan: problems and their solutions. *International Cooperation Department Research and Training Institute Ministry of Justice, Japan, ICD News*, 2018, no. 75 (6), pp. 29-38.
11. Nematov J. Administrativnaya yustisiya v Respublike Uzbekistan, Rossiyskoy Federatsii i Yaponii: sravnitelno-pravovoy analiz. *Konstitutsiya Rossiyskoy Federatsii i eyo vliyaniye na praktiku gosudarstvennogo stroitelstva i razvitiye pravovoy sistemi strani. Ser.: Yubilei, konferen- sii, forumi. Vip. 9: Materiali Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii, posvyashennoy 55-letnemu yubileyu yuridicheskogo fakulteta Voronezhskogo gosudarstvennogo universiteta. Voronej, 17–18 oktabrya 2013 g. Pod red. Y. N. Starilova* [Administrative justice in the Republic of Uzbekistan, the Russian Federation and Japan: a comparative legal analysis. The Constitution of the Russian Federation and its influence on the practice of state building and the development of the legal system of the country. Series: Anniversaries, conferences, forums. Vol. 9. Proceedings of the International Scientific and Practical Conference Dedicated to the 55th Anniversary of the Faculty of Law of Voronezh State University. Voronej, October 17–18, 2013, Ed. Y. N. Starilova]. Voronezh, VSU Publishing House, 2014, pp. 189–201.
12. Nematov J. Transformation of Soviet administrative law: Uzbekistan's case study in judicial review over administrative acts. *Administrative law and process*, 2020, no. 1 (28), pp. 105–125. DOI: <https://doi.org/10.17721/2227-796X.2020.1.08/>.
13. Nematov J. Saylov qonunchiligiga oid sud ishlarini yuritishning o'ziga xos xususiyatlari [Peculiarities of electoral law proceedings]. *Odil sudlov jurnali – Journal of Justice*, 2019, no. 11, pp. 12-16.
14. Nematov J. Fuqaroning ma'muriy sudga shikoyat qilish huquqi cheklanishi mumkinmi (sudlovga taalluqlilikning ayrim jihatlarini tahlili) [Can a citizen's right to appeal to an administrative court be restricted (analysis of some aspects of jurisdiction)]. *Huquqiy tadqiqotlar jurnali – Journal of Legal Studies*, 2020, no. S4, pp. 212–224.

UDC: 342.5(042)(575-1)
ORCID: 0000-0002-0869-4129

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARINING SIYOSIY PARTIYA GURUHLARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI

Babadjanov Atabek Davronbekovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti dekani,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
e-mail: ababadjanovtsul@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqola mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining siyosiy partiya guruhlarini faoliyat samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqishga bag'ishlangan bo'lib, ushbu soha bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan mahalliy va xorijiy mutaxassislarining ilg'or tajribalari o'rganilib, mazkur yo'nalishdagi amaliy muammolar ilmiy tahlil qilingan holda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining siyosiy partiya guruhlarini faoliyat samaradorligini baholash mezonlari hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Shuningdek, maqolada xalq deputatlari Kengashlari muayyan hududning vakillik organi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga oid dasturlarni, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda va tasdiqlash jarayonida ishtirok etishi, shu bois bunday faoliyat deputatlardan rivojlanish va tartibga solishning turli jihatlari bo'yicha keng dunyoqarashga va tegishli malakaga ega bo'lishni talab qilishi, lekin mahalliy vakillik organlari deputatligiga nomzodlar malakali tanlov asosida emas, balki umumiy ovoz berishi natijasida saylanishi maqolada atroflicha o'rganilib, tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari, siyosiy partiya, partiya guruhlarini, ko'ppartiyaviylik, deputat, saylov va baholash mezonlari.

КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙНЫХ ГРУПП ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ НА МЕСТАХ

Бабаджанов Атабек Давронбекович,
доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент,
декан факультета магистратуры и заочного образования
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Данная статья посвящена разработке критериев оценки эффективности деятельности партийных групп представительных органов государственной власти на местах. Был изучен передовой опыт отечественных и зарубежных специалистов, проводивших научные исследования в этой области, и на основе научного анализа практических проблем в этом направлении были разработаны критерии оценки эффективности деятельности партийных групп, а также практические предложения. В статье также указано, что Совет народных депутатов как представительный орган региона участвует в разработке и утверждении программ социально-экономического развития, постановлений, поэтому такая деятельность требует от депутатов широкого кругозора и соответствующих навыков в различных сферах. Подробно исследуются и анализируются аспекты не только развития и регулирования деятельности партийных групп, но и то, что кандидаты в депутаты местных представительных органов избираются на основе всеобщего голосования, а не квалифицированного отбора.

Ключевые слова: представительные органы государственной власти на местах, политическая партия, партийные группы, многопартийность, депутат, критерии выборов и оценки.

CRITERIA FOR THE EVALUATION OF EFFECTIVENESS OF POLITICAL PARTY GROUPS BY REPRESENTATIVES OF LOCAL STATE GOVERNMENT BODIES

Babadjanov Atabek Davronbekovich,

Dean of the Faculty of Master's and Correspondence Education of
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

Abstract. *This article is devoted to the development of criteria for evaluating the effectiveness of the activities of party groups of representatives of local state government bodies in the field, the best practices of domestic and foreign specialists who conducted scientific research in this area were studied, based on the scientific analysis of practical problems in this direction, criteria for evaluating the effectiveness of party groups and practical proposals were developed. The article also states that the Councils of People's Deputies, as a representative body of the region, participate in the development and approval of programs, socio-economic development, regulations, therefore, such activities require deputies to have a broad outlook and relevant skills in various aspects of development and regulation, but the fact that candidates for deputies of local representative bodies are elected on the basis of general voting and not on the basis of qualified selection is thoroughly studied and analyzed in the article.*

Keywords: *Representatives of local state government bodies, political party, party groups, multiparty membership, deputy, election and evaluation criteria.*

Amalga oshirilayotgan islohotlarning qanchalik samarali kechishi va istiqboli xalqning, xususan, uning irodasini hokimiyat darajasida ifoda etishga yo'naltirilgan siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat hayotida bo'layotgan o'zgarishlar hamda yangilanish jarayonida faol ishtirok etishi bilan uzviy bog'liq. Biroq bu ishtirok faqat saylovlar jarayonidagi faollik bilan kifoyalanmasligi, balki hokimiyat tuzilmalari, shu jumladan, mahalliy darajadagi vakillik organlarida jamoatchilikning irodasini aks ettirish hamda qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etishni ham nazarda tutadi. Bu holat mahalliy davlat vakillik organlarida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda siyosiy partiyalarning ishtirokini samarali ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida mahalliy vakillik hokimiyati organlari faoliyatiga alohida to'xtalib o'tgan edi. Davlatimiz rahbari ushbu organlar ishiga doir qator tanqidiy fikrlarni bildirdi: "Hisobotlarga e'tibor bersak, mahalliy Kengashlar faoliyatida go'yo-ki ijobiy o'zgarishlar yuz berayotgandek tuyuladi, lekin ular faqat raqamlarda aks etmoqda, xolos. Bizga raqamlar emas, aniq natija kerak. Qachonki, hududlardagi vaziyat ijobiy tomonga o'zgarsa, byudjet ijrosi to'liq ta'minlansa, jinoyatchilik kamaysa, yangi ish o'rinlari yaratilsa, eng muhimi, xalqimizning turmush darajasi yaxshilansa, mahalliy Kengashlar faoliyatiga ijobiy baho bersa

bo'ladi. Afsuski, bironta tumanda xalq deputatlari Kengashining faoliyati namunali asosda tashkil etilgani yo'q" [1].

Jahonning bir qator, chunonchi AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Yevropaning iqtisodiyoti rivojlangan davlatlari munitsipal (vakillik) hokimiyat organlarida ochiqlik va shaffoflikka asoslangan, optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda "aqlli" boshqaruv prinsiplarini joriy etishga alohida ahamiyat berilgan [2].

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida bizda ham "aqlli" boshqaruv prinsiplariga bosqichma-bosqich o'tish vazifasi belgilangan. Mazkur vazifani amalga oshirishda bir qator jihatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Davlat organlarining xalqqa ko'makchi, tadbirkorlarga biznes hamkor sifatida faoliyat ko'rsatishini yo'lga qo'yish o'ziga xos jihat sifatida ahamiyatlidir. Boshqaruv qarorlari qabul qilish tizimining ochiqligi va shaffofligini oshirish bu bevosita mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining faoliyatini takomillashtirish bilan bog'liq. Bunda hokimiyatning vakillik organlari va ijro hokimiyati idoralari o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlaydigan usul va uslublarni takomillashtirib, o'ta markazlashgan boshqaruvdan bosqichma-bosqich voz kechish lozim, shuning-

dek hokimlarning ijro va vakillik hokimiyati rahbari sifatidagi vakolatlarini alohida-alohida ajratib qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, o'z navbatida, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlarida partiya guruhlarining boshqaruv qarorlari qabul qilishdagi rolini oshirishni taqozo etadi.

Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiyalar ishtirokining natijalariga doimiy ravishda baho berish tizimini yaratish ham alohida jihat hisoblanadi.

Bunda A. Xolov "Aqlli" boshqaruv nima?" nomli maqolasida asosan hokimliklarning faoliyatini baholash usullari haqida to'xtalib o'tgan. Fikrimizcha, olim tomonidan ko'rsatib o'tilgan uslubiyotni, ya'ni SMART usulini mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarida partiya guruhlari faoliyati natijalariga doimiy ravishda baho berishda ham qo'llash maqsadga muvofiqdir. Unga ko'ra, maqsad aniq (specific), o'lchovli (measurable), maqbul (accepted), haqiqiy (realistic), cheklangan vaqt oralig'ida bajariladigan (time-dependent) bo'lishi lozim. Viloyat, tuman va shahar mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlaridagi siyosiy partiya guruhlari faoliyatini kompleks baholash mezonlarini amaliyotga tatbiq etishda ilg'or xorij tajribasiga, dunyoning rivojlangan mamlakatlari-da keng qo'llanilayotgan zamonaviy usul va modellarga asoslangan ("ochiqlik indeksi", yakuniy natijalar bo'yicha aniqlash, to'g'ridan to'g'ri natijalar asosida samaradorlikni baholash, iqtisodiy samaradorlikni baholash orqali ijtimoiy va siyosiy omillarning aloqadorligini baholash, ko'p mezonli baholash usullarini modellashtirish va boshqalar) metodikalardan, tamoyillardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

Binobarin, Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni samarali amalga oshirishni ta'minlashda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarida "aqlli" boshqaruv prinsiplarini joriy etishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish, mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatiga baho berish dolzarb masala bo'lib, bu borada ishni tashkil etishning aniq natijalarga erishishga qaratilgan zamonaviy uslublarini (sifat menejmenti, indikativ rejalashtirish, autsorsing, kraudsorsing) joriy etish talab qilinadi.

Huquqshunos olim A. Maxmudov "O'zbekiston Respublikasida mahalliy vakillik organlarining nazorat faoliyatini takomillashtirish" nomli tad-

qiqot ishida siyosiy partiya deputatlik guruhlari, xususan, deputatlik nazoratini baholashning quyidagi mezonlarini ishlab chiqqan: hudud-da fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari ta'minlanganligi; hududdagi qonun buzilishi darajasining yuqori yoki pastligi, shu jumladan, korruptsiyaning holati; mahalliy ahamiyatga molik muammolarning ko'lami; hududning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanganligi darajasi.

Tadqiqotchi, shuningdek, aksariyat mahalliy kengashlardagi partiya guruhlari tegishli hudud-da joylashgan davlat organi rahbarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan hisoboti yoki axborotini xalq deputatlari Kengashining sessiyalarida eshittish haqida takliflar kiritish, so'rov bilan murojaat qilish bo'yicha deyarli, shuningdek, viloyat va Toshkent shahar hokimi lavozimiga tasdiqlangan shaxslarning qoniqarsiz faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga asoslangan xulosalar taqdim etish tashabbusi huquqidan umuman foydalanmaganligini ko'rsatib o'tgan [3].

Mahalliy vakillik organlarining faoliyati samaradorligi, fuqarolarning, ijtimoiy guruhlarning, aholining hamda jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish darajasiga qarab baholanishi lozim. Shu jihatdan olganda tadqiqotchi A. Maxmudovning mahalliy vakillik organlari, xususan, deputatlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlari bo'yicha bildirgan mulohazalari, ushbu masala bo'yicha tadqiqot olib borgan rossiyalik olim V.S. Kasyanovning ilmiy izlanishlaridagi fikrlariga hamohangdir.

Xususan, mazkur olimning fikricha, vakillik organi va deputatlik faoliyatining aniq reglamentlarini ishlab chiqqandan keyingina ular faoliyatining samaradorligini aniqlaydigan muayyan mezonlar va ko'rsatkichlarni ishlab chiqish mumkin. Bunda samaradorlik tushunchasini tavsiflaydigan quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim: fuqarolarning mahalliy vakillik organiga bo'lgan ijobiy munosabati; tegishli hududda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining rivojlanib borayotganligi; mahalliy vakillik organining kuchli ijro apparati; yuqori malakali deputatlik korpusi va munitsipal xizmatlarning mavjudligi; vakillik organida kuchli partiya liderlarining borligi; vakillik organi faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarning to'liqligi; nazoratning samarali yo'lga qo'yilganligi va boshqalar.

Ayni paytda mahalliy vakillik organlari va deputatlar faoliyatining samaradorligiga salbiy

ta'sir etuvchi quyidagi omillarni ko'rsatib o'tish mumkin: moliyaviy va moddiy bazaning yetarli emasligi; deputatlar va munitsipal xizmatchilari malakasining pastligi; korrupsiya; saylovchilardan uzilib qolganligi; yetarli darajada normativ-huquqiy hujjatlar bazasining shakllanmaganligi; vakillik organida siyosiy partiyalardan namoyon bo'lgan deputatlarning yetarli darajada obro'ga ega emasligi [4].

Huquqshunos olim M.V. Nazukinaning fikricha, mahalliy vakillik organlarida faoliyat yuritadigan deputatlar bir qator sifatarga ega bo'lishi lozim. Bular sifatida olim quyidagilarni ko'rsatib o'tadi: halollik, mas'uliyatlilik, ochiqlik, o'z fikrining mavjudligi, professionallik va kompetentlik, aholining manfaatlarini amalga oshirish uchun muayyan tashabbuslarni ilgari surish, faollik va boshqalar [5].

Xalq deputatlari Kengashlari muayyan hududning vakillik organi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga oid dasturlarni, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda va tasdiqlash jarayonida ishtirok etadi. Shu bois bunday faoliyat deputatlardan rivojlanish va tartibga solishning turli jihatlari bo'yicha keng dunyoqarashga va tegishli malakaga ega bo'lishni talab qiladi. Lekin mahalliy vakillik organlari deputatligiga nomzodlar malakali tanlov asosida emas, balki umumiy ovoz berishi natijasida saylanadi. O'z o'rnida umumiy ovoz berish nomzodlarning malakasini doim ham e'tiborga olmasligi mumkin.

Ayni paytda huquqshunos olim A.K. Yangibayev mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining siyosiy partiya guruhlarida faoliyat samaradorligini baholash mezonlari bo'yicha boshqacha yondashib, siyosiy partiyalar kursini saylovchilar tomonidan baholash davlat hokimiyati ijroiya organlarini shakllantirish jarayoniga fuqarolar ta'sirining va davlat ishlarini boshqarishda aholi (o'z vakillari orqali) ishtirokining samarali vositasi bo'lishi mumkinligiga e'tibor qaratadi [6].

O'zbekistonda mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholashning nazariy-huquqiy asoslarini o'rgangan olim Q. Umidullayev baholash tizimi davlat boshqaruvi va mahalliy ijro hokimiyati organlarida korrupsiya darajasini kamaytirish, boshqaruv sohasini takomillashtirish, qonun ustuvorligi va faoliyat oshkoraligini ta'minlash hamda asosiy maqsadlarga erishishga qaratilgan siyosatni ta'minlaydi deb

hisoblaydi. Uning fikricha, baholash tizimi qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va chora-tadbirlarning aniq maqsadlarini belgilab beradi. Ularni takomillashtirish va sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Baholash jarayonlari davlat boshqaruvi organlari faoliyatini takomillashtirish bilan birga jarayonlar haqida aniq xulosalar qilishga zamin yaratadi [7].

Huquqshunos olim M.V. Nazukinaning fikricha, ko'pchilik ekspertlar vakillik organlari samaradorligini oshirish uchun ular faoliyatining samaradorligini baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish kerakligini ko'rsatib o'tadilar. Ushbu mezonlar vakillik organining faoliyatini ham son, ham sifat jihatdan baholash ko'rsatkichlarini e'tiborga olish lozim.

Olimning fikricha, bunday mezonlar sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin: deputatlik so'rovlarining yuborilishi va ularning hal etilganligi; mahalliy kengashlar va ularning komissiyalarida doimiy ishtirok etishi; turli xil masalalar bo'yicha takliflar kiritish va ularni qaror shaklida qabul qilinishiga erishish orqali aholining manfaatlarini himoya qilishi; saylovchilar oldida qilgan ishlari yuzasidan hisobot tadbirlarini muntazam o'tkazib borishi; ommaviy axborot vositalari va matbuot anjumanlarida o'z faoliyati yuzasidan chiqishlar qilib turishi; okrug saylovchilari bilan uchrashuvlar o'tkazish, okrugning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish va boshqalar [8].

Fikrimizcha, yuqorida qayd etib o'tilgan olimlar mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining siyosiy partiya guruhlarida faoliyat samaradorligini baholash mezonlariga birmuncha tor yondashishgan hamda ular faoliyatining muayyan jihatlarigagina e'tibor qaratishgan. Agar partiyalar faoliyati bugungi kunda jamiyat hayotining deyarli barcha yo'nalishlarini qamrab olganligini hamda davlat hokimiyati vakillik organlari tegishli hududlarda kompleks xarakterga ega bo'lgan qarorlar qabul qilishda mas'ul ekanligini e'tiborga oladigan bo'lsak, siyosiy partiya guruhlarida faoliyat samaradorligini baholash mezonlarini birmuncha kengroq ko'rsatkichlar bo'yicha ishlab chiqish zarurligini ko'ramiz. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining siyosiy partiya guruhlarida faoliyat samaradorligini baholash mezonlari bo'yicha tegishli adabiyotlarni tahlil qilish asnosida ushbu mezonlar sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin.

1. Partiya faoliyatini baholash mezonlari:

- fraksiya, qo'mitalar, komissiyalar yig'ilishlarida ishtirok etish;
- siyosiy kengashlar ishida qatnashish;
- siyosiy kengashlar va partiyaning yuqori organlari qarorlarining bajarilishida ishtirok etish;
- mahalliy vakillik hokimiyati organida tashkil etilgan guruh ishida ishtirok etish;
- vakillik organi yalpi majlisi davomida fraksiyaning umumiy yig'ilishida qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta'minlash;
- vakillik va ijro hokimiyati organlarida partiya ta'sirini kuchaytirishni ta'minlash, partiyalararo munozaralarda partiyaning manfaatlarini himoya qilish;
- mahalliy vakillik organlariga bo'lib o'tadigan saylov kampaniyalarida ishtirok etish;
- hokimiyatning vakillik organlari deputatlarining bo'sh o'rinlariga, shuningdek siyosiy partiyalarning dastlabki ovoz berishida qatnashish uchun siyosiy kengash tarkibiga nomzodlarni tanlash;
- partiya va jamoat tashkilotlarida vakillik hokimiyati deputatlari bo'sh o'rinlarini to'ldirish uchun nomzodlarni taqdim etish;
- nomzodning saylovoldi tashviqotida ishtirok etish.

2. Ijtimoiy faoliyatdagi ishtirokini baholash:

- aholini partiyaning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi siyosati to'g'risida xabar-dor qilish;
- saylovchilar, faxriylar, nafaqaxo'rlar, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari, jamoat birlashmalari, partiya tarafdorlari bilan uchrashuvlarda tashviqot-targ'ibot ishlarini olib borish;
- ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda aholini o'z faoliyati yuzasidan xabardor qilish.

3. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining huquq ijodkorligi faoliyatidagi ishtirokini baholash:

- ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot masalalari bo'yicha fikrlar, murojaatlar, saylovchilar, jamoat tashkilotlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlarini o'rganish, tahlil qilish hamda umumlashtirish;
- vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlarining ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot masalalari bo'yicha fikrlari, murojaatlarini hamda saylovchilarning talablarini ko'rib chiqish uchun taqdim etish va ularni vakillik va ijro hokimiyati organlarida muhokama qilish;

– qonunlarni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

– fraksiya (guruh) umumiy yig'ilishining qaroridan kelib chiqqan holda tegishli vakillik organlarida normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilinishi bo'yicha ovoz berishda ishtirok etish;

– qonun va normativ-huquqiy hujjatlarda bayon qilingan va amalga oshirilayotgan tashabbuslar ijrosini tahlil qilish;

– tegishli hududlarda mahalliy vakillik organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning bajarilishini nazorat qilish.

4. Partiya markaziy organlari ko'rsatmalarining ijrosini ta'minlash borasidagi faoliyatini baholash:

- partiya tadbirlarida ishtirok etish;
- ommaviy tadbirlarda ishtirok etish;
- tegishli hududda partiya tomonidan ilgari surilgan loyihalarni amalga oshirishdagi ishtiroki va uning natijalari;
- partiya a'zolariga nomzodlarni tanlash va partiya a'zolarining ko'payishini ta'minlash;
- tegishli hududlarda partiyaning boshlang'ich tashkilotlarini tuzishda ishtirok etish;
- mahalliy vakillik hokimiyati organlarida partiya guruhi va fraksiyalarini tashkil etish;
- tegishli hududlarda partiyaning obro'si va reytingini oshirishga qaratilgan tadbirlarda ishtirok etish;
- partiya tadbirlariga yoshlarni va ularning tashkilotlarini jalb qilish;
- saylovchilarning jamoaviy va yakka murojaatlari bilan ishlash.

Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining siyosiy partiya guruhlari faoliyat samaradorligini baholash mezonlarini zamon talablari asosida ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish mahalliy miqyosda davlat hokimiyati organlari subyektlari, ya'ni hokim va xalq deputatlari Kengashlari o'rtasidagi vakolatlarining yanada mutanosib taqsimlash, siyosiy partiyalarning mahalliy miqyosdagi muammolarni hal etishga qaratilgan faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan ahamiyati, avvalambor, quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, hokimiyatning vakillik va ijro etuvchi organlarini shakllantirishda siyosiy partiyalarning faol ishtiroki uchun zarur tashkiliy-huquqiy sharoitlar ta'minlanadi;

ikkinchidan, joylardagi ijro hokimiyati organlari va mansabdor shaxslarning davlat hokimiyat vakillik organlarida o'z vakillariga ega bo'lgan siyosiy partiyalar, ularning partiya guruhlarida oldida hisob berishini belgilab beradigan va ta'minlaydigan samarali huquqiy mexanizmlar yanada takomillashadi;

uchinchidan, siyosiy partiya guruhlarida faoliyat samaradorligini baholash natijasida aniqlangan muammolarni hal etish yuzasidan siyosiy partiyalar tomonidan muayyan takliflarning ijrosini ta'minlash jarayoniga faol ta'sir ko'rsatish imkoniyatini beradigan huquqiy mexanizmlar yaratilishiga xizmat qiladi;

to'rtinchidan, mamlakatimizda kechayotgan keng ko'lamli islohotlarni hamda siyosiy, iqtisodiy va gumanitar qurilishning maqsadli vazifalarini bajarishda siyosiy partiyalarning tashabbuskorligi, roli, ta'siri hamda mas'uliyatini kuchaytirishga olib keladi;

beshinchidan, mahalliy vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiyalar guruhlarida o'rtasida yuzaga kelgan o'ziga xos konstruktiv raqobatning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga hamda jamiyatimiz hayotida ijtimoiy va siyosiy

faollikni hamda ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda siyosiy partiyalarning yuk-salishi, ularning davlat bilan jamiyat o'rtasida o'zaro ishonch va mas'ullikka asoslangan munosabatlarni qaror toptirishdagi ishtirokini yanada kengaytirishga qaratilgan mazkur o'zgartishlarning zaruratini belgilab beruvchi asosiy sabablardan biri – bu ularning davlat hokimiyatini shakllantirishdagi o'rni bilan izohlanadi.

Zero, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish amaliyoti shuni alohida ko'rsatadiki, faqat siyosiy partiyalar vositasidagina shakllangan hokimiyat ham davlat, ham jamiyat manfaatlariga asosida faoliyat ko'rsata olishga qodir.

Mazkur o'zgarishlarning ahamiyati faqat hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlari faoliyati bilangina cheklanib qolmaydi. Ushbu qoidalarining ro'yobga chiqarilishi butun siyosiy tizimga, davlat qurilishi tizimiga, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar, mamlakatni demokratik jihatdan yangilash jarayonlariga ham chuqur ta'sir o'tkazadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22-dekabr 2017-y. [Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis. December 22, 2017]. Tashkent, Uzbekistan, 2018.
2. Business daily media publishing house. Available at: <http://biznes-daily.uz/ru/gazeta-birja/62523--aqliboshqaruv-nima/>.
3. Maxmudov A. O'zbekiston Respublikasida mahalliy vakillik organlarining nazorat faoliyatini takomillashtirish. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati [Improving the oversight of local representative bodies in the Republic of Uzbekistan. Abstract of the dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Law]. Tashkent, 2019, p. 48.
4. Kasyanov V.S. Problemnye voprosy otsenki effektivnosti deyatelnosti predstavitel'nogo organa mestnogo samoupravleniya [Problematic issues of assessing the effectiveness of the activities of a representative body of local self-government]. Gosudarstvennoye i munitsipalnoye upravleniye. Ucheniye zapiski SKAGS – State and municipal administration. Scientific Notes SKAGS, 2009, p. 36.
5. Nazukina M. V. Obrazi i otsenki munitsipal'nix deputatov v predstavleniyax lokal'nix elit Permskogo kraya [Images and assessments of municipal deputies in the views of local elites of the Perm region]. Ars Administrandi (Iskusstvo upravleniya) – The Art of Management, 2017, vol. 9, no. 4, p. 649.
6. Yangibayev A.K. O'zbekiston Respublikasi siyosiy partiyalarining davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda ishtirokining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari [Constitutional and legal basis for the participation of political parties of the Republic of Uzbekistan in the formation of public authorities]. Tashkent, IIV Academy of the Republic of Uzbekistan, 2015, p. 44.

7. Umidullayev Q.U. O'zbekistonda mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholashning nazariy-huquqiy asoslari. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoref. [Theoretical and legal basis for assessing the effectiveness of local executive bodies in Uzbekistan. Abstract dis. Doctor of Philosophy (PhD) in Law]. Tashkent, 2019, p. 46.

8. Nazukina M. V. Obrazi i otsenki munitsipalnih deputatov v predstavleniyax lokalnix elit Permskogo kraya [Images and assessments of municipal deputies in the views of local elites of the Perm region]. Ars Administrandi (Iskusstvo upravleniya) – The Art of Management, 2017, vol. 9, no. 4, p. 654.

9. Berdikulov S.N. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik milliy modelini rivojlantirish istiqbollari. O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir Sh.O. Mamadaliyev [Prospects for the development of a national multiparty model in Uzbekistan. Study guide. Editor-in-Chief Sh.O. Mamadaliyev]. Tashkent, Tashkent, IIV Academy of the Republic of Uzbekistan, 2016, p. 108.

10. Isaev B.A. Teoriya partiy i partiynih sistem. 2-e izd., ispr. i dop. [Theory of parties and party systems. 2nd ed., rev. and additional]. Moscow, Yurayt Publ., 2017, p. 370.

11. Yangibaev A.K. O'zbekiston Respublikasi siyosiy partiyalarining davlat hokimiyati organlarini shakllantirishdagi ishtirokining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari [Constitutional and legal basis for the participation of political parties of the Republic of Uzbekistan in the formation of public authorities]. Tashkent, Tashkent, IIV Academy of the Republic of Uzbekistan, 2015, p. 4.

12. Maxmudov A.A. O'zbekiston Respublikasida mahalliy vakillik organlarining nazorat faoliyatini takomillashtirish. Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati [Improving the oversight of local representative bodies in the Republic of Uzbekistan. Abstract of the dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Law]. Tashkent, DBA, 2019, pp. 13–14.

13. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi [Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Uzbekistan, 2018, p. 80.

14. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan "On local government"]. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi – Bulletin of the Supreme Council of the Republic of Uzbekistan, 1993, no. 9, Art. 320.

15. O'zbekiston Respublikasining "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni [Constitutional Law of the Republic of Uzbekistan "On modernization and further democratization of public administration and strengthening the role of political parties in the modernization of the country"].

16. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami – Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2014, no. 16, Art. 17.

17. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami – Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2017, no. 6, Art. 70.

18. Yangibayev A.K. O'zbekiston Respublikasi siyosiy partiyalarining davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda ishtirokining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari [Constitutional and legal basis for the participation of political parties of the Republic of Uzbekistan in the formation of public authorities]. Tashkent, IIV Academy of the Republic of Uzbekistan, 2015, p. 20.

19. O'zbekiston Respublikasi "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan "On Political Parties"]. 1996.

UDC: 347.7(042)(575.1)
ORCID: 0000-0003-2930-1774

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISLOM MOLIYASINING HUQUQIY ASOSLARINI YARATISH MASALALARI

Turaboyev Ixtiyorjon Qobilovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
"Ma'muriy va moliya huquqi" kafedrası katta o'qituvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori,
e-mail: ituraboev@mail.ru

Annotatsiya. Hozirgi paytda an'anaviy moliyaviy institutlarga muqobil ravishda islom prinsiplariga asoslangan moliyaviy institutlar va ular tomonidan taklif qilanayotgan xizmatlarning roli oshib bormoqda. Maqolada islomiy moliya institutlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularning an'anaviy moliya institutlaridan farqlari tahlil qilingan. Shuningdek islom moliya institutlarining Markaziy Osiyo davlatlarida rivojlanish holatlariga ham to'xtalib o'tilgan. Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasida islom moliyasini joriy qilish bo'yicha amalga oshirilgan harakatlar tahlil qilingan va islom moliyasi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha muammolar ko'rsatib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda mamlakat rahbariyati tomonidan islomiy moliya asoslarini kiritish bo'yicha fikr bildirilganligi mamlakatda mazkur sohada amalga oshirilishi zarur harakatlarni belgilab olish muhimligini ko'rsatadi. Mamlakat rahbari tomonidan islom prinsiplariga asoslangan moliya xizmatlarini ko'rsatishning huquqiy asoslarini yaratish bo'yicha siyosiy irodasi mavjud bo'lsa-da, mazkur sohada ishlar sust amalga oshirilayotganligi ta'kidlab o'tilgan. Maqolada muallif tomonidan mamlakatimizda islomiy moliya xizmatlar ko'rsatuvchi subyektlarni yaratish va ularning sonini ko'paytirish hamda aholini mazkur xizmatlardan foydalanishiga shart-sharoit yaratib berish maqsadida amalga oshirilishi zarur bo'lgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, islom banki, ribo, g'orar, qonunchilik.

ВОПРОСЫ СОЗДАНИЯ ПРАВОВЫХ ОСНОВ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Турабоев Ихтиержон Кобилевич,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
старший преподаватель кафедры
«Административное и финансовое право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Растет роль исламских финансовых институтов и услуг, которые они предлагают в качестве альтернативы традиционным финансовым институтам. В статье анализируются особенности исламских финансовых институтов и их отличия от традиционных. Также обсуждается развитие исламских финансовых институтов в Центральной Азии. Автор анализирует усилия по внедрению исламского финансирования в Республике Узбекистан и выявляет проблемы в предоставлении исламских финансовых услуг. В связи с тем, что сегодня руководство Республики Узбекистан выразило свое мнение о внедрении принципов исламского финансирования, важно определить необходимые шаги, которые необходимо предпринять в этой сфере. Глава государства отметил, что, несмотря на политическую волю к созданию правовой базы для предоставления финансовых услуг на основе исламских принципов, работа в этой сфере идет медленно. Автором статьи разработаны предложения, которые необходимо реализовать для создания и увеличения количества субъектов, предоставляющих в стране исламские финансовые услуги, а также для создания условий для использования населением этих услуг.

Ключевые слова: исламские финансы, исламские банки, риба, гарар, законодательство.

ISSUES OF CREATING LEGAL BASES OF ISLAMIC FINANCE IN UZBEKISTAN

Turaboev Ikhtiyorjon Kobilovich,

Senior lecturer of the Department of Administrative and financial law
of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. *At present, the role of financial institutions and their services that are based on the principles of Islam is increasing as an alternative to traditional financial institutions. In this article, specific features of Islamic finance and its difference from traditional finance were analyzed. The state of development of Islamic finance in Central Asian countries was also enlightened. The author analyzed activities on introducing Islamic finance in Uzbekistan and highlighted the main problems connected with introducing Islamic finance in the Republic of Uzbekistan. Certain ideas of the administration of the country on Islamic finance requires determining the main directions of activities in this field. The author stated that despite the political will of the head of the country on creating legal bases for the activities on Islamic financial institutions, steps in this sphere are being put very slowly. In this article, the author elaborated recommendations on creating legal bases for Islamic finance and further development on Islamic finance services in the Republic of Uzbekistan.*

Keywords: *Islamic finance, Islamic banking, riba, garar, legislation.*

Bugungi kunga kelib jahonning ko'pgina davlatlarida, jumladan, mamlakat aholisining asosiy qismi islom diniga e'tiqod qilmaydigan davlatlarda ham islom tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi moliya institutlari tomonidan turli islomiy moliya xizmatlari ko'rsatib kelinmoqda. Bunday moliyaviy xizmatlar sirasiga islomiy bank ishi, takoful (sug'urta), islomiy qimmatli qog'ozlar (suquq) operatsiyalari kiradi. Y. Baydauletning ta'kidlashicha, hozirgi vaqtda 105 ta mamlakatda islomiy moliya ishlab turibdi va aksariyat mamlakatlar qonunchiligida mazkur soha uchun normativ-huquqiy baza yaratilgan [1].

Mazkur maqolada islomiy prinsiplarga asoslangan moliya xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ushbu faoliyatning O'zbekiston Respublikasidagi istiqbollari va hal etilishi zarur bo'lgan muammolar haqida fikr yuritamiz

Islomiy moliya institutlarining boshqa an'anaviy moliya institutlaridan qanday farqlari mavjud? Mazkur farqlarni islomiy banklar va an'anaviy tijorat banklari o'rtasidagi farqlar misolida ko'rib chiqamiz. Islomiy banklar o'z faoliyatlarini islom dini normalariga qat'iy asoslangan holda amalga oshiradilar. Islomiy banklar faoliyatlarining asosiy tamoyillari shariat tomonidan man etilgan foizlarning mavjud emasligi, ya'ni riboning mavjud emasligi hamda banklarning alkohol mahsulotlari ishlab chiqish va sotish, qimor yoki boshqa tavakkalchilikka oid o'yinlarni tashkil etish, ya'ni islom dini

normalariga zid keluvchi faoliyat turlari bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirishda ishtirok etmaslikka asoslangan.

Islom prinsiplari asosida iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda belgilangan shariat ahkomlarining eng asosiylaridan biri bu riboning qat'iy man qilinganligidir.

An'anaviy banklar tomonidan olinadigan foydaning asosini taqdim etilgan kreditlardan olingan foizlar tashkil etsa, islom banklari tomonidan foyda bu foizlar evaziga emas, balki banklar tomonidan investitsiya faoliyatini olib borish natijasida olingan foyda hisoblanadi. Islomiy moliya tizimi sherikchilik hamda foyda va zarar ni taqsimlash prinsiplariga asoslangan. Agar an'anaviy bank tizimida tijorat banki va mijoz o'rtasidagi munosabatlar kreditor-qarzidor munosabatlariga asoslangan bo'lsa, islomiy bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlar sherikchilik munosabatlari sifatida gavdalanadi. Mazkur munosabatlarda foyda va zarar islomiy bank va mijoz o'rtasida teng taqsimlangani sababli mijoz amalga oshirayotgan loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida ham bank bevosita manfaatdor hisoblanadi.

Islomiy moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – voqelikdagi (real) aktivlar asosida moliyalashtirishdir [1].

Islomiy moliyaning yana bir muhim xususiyatlaridan biri g'orarning mavjud bo'lmashligi. "G'orar" lug'atda "aldash" ma'nosini bildiradi. Shariat o'z hukmlarida oldi-berdi muomalalarini

to'raligicha aniq va ravshan bo'lishini buyurgan. Keyinchalik janjalga sabab bo'ladigan biror mubhamlikka ruxsat bermaydi. Oldi-berdilaridagi bunday mubhamlikni shariatda "g'orar", ya'ni aldash, o'zganing haqqiga xiyonat qilish deyiladi" [2].

Markaziy Osiyo davlatlarida islomiy moliya xizmatlarini joriy qilish bo'yicha birmuncha ishlar amalga oshirilgan. Qozog'iston Respublikasida islom tamoyillariga asoslangan moliyalashtirishni tartibga soluvchi qonunchilik bazasi yaratilgan. Shuningdek, Qirg'iziston Respublikasida ham mazkur sohada ishlar olib borilmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida O'zbekiston Respublikasida islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha xatti-harakatlar ancha kech boshlandi. Bunga turli sabablarni keltirish mumkin. Balki davlat bank tizimi tomonidan islomiy bank tizimi raqobat sifatida ko'ringan bo'lishi mumkin.

Shuningdek, 2016-yilgacha bo'lgan davlat siyosatida islom an'alaridan chekinish hamda sof iqtisodiy ma'nodagi islom moliyasini joriy etish mamlakatni diniy ta'sir ostida tushib qolishi kabi hadiklar bo'lgan bo'lishi ham mumkin. Ammo eng asosiy sabab mamlakat rahbariyatida islomiy moliya tizimini yaratish bo'yicha siyosiy irodaning mavjud emasligida hisoblanadi.

2016-yilda Sh. Mirziyoyev mamlakat prezidenti etib saylangandan so'ng mamlakat hayotining barcha sohalarida, jumladan, iqtisodiyot sohasida katta islohotlar amalga oshirila boshlandi.

2020-yil 29-dekabr kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati keldi deb ta'kidlab o'tdi [3]. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasida islomiy moliya xizmatlarini mamlakat hayotiga kiritish bo'yicha mamlakat rahbariyatining siyosiy irodasi bildirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni

qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida 2021-yil 1-martga qadar "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalash to'g'risida" qonun loyihasini tayyorlash va unda bank kredit tashkilotlari tomonidan islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish nazarda tutilgan [4]. Yuqorida ta'kidlangan qonun loyihasining 2020-yilda muhokamaga qo'yilgan tahririda nobank kredit tashkilotlari va mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliya xizmat ko'rsatish to'g'risida qoidalar mavjud emas edi. Hozirda qonun loyihasining qayta ishlangan tahriri e'lon qilinmaganligi sababli bu haqda fikr yurita olmaymiz. Ammo islomiy moliya xizmatlari nobank kredit tashkilotlari hamda mikromoliya tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi va bu xizmatlar mamlakat bank tizimidan tashqarida amalga oshirilish ehtimoli ko'proq.

Islomiy-moliyaviy moliyalashtirish tamoyillari asosida qimmatli qog'ozlar – suquq joriy etish va ularni chiqarishni tartibga solish bo'yicha ham xatti-harakatlar boshlangan. 2020-yil oktabrda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali – www.regulation.gov.uz saytida O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan tayyorlangan "Islom moliyalashtirish tamoyillari asosida qimmatli qog'ozlarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi e'lon qilingan.

Ammo mazkur normativ-huquqiy hujjat ham qabul qilinganicha yo'q. Suquq emissiyasini to'raligicha tartibga solishga qaratilgan qonuniy bazani yaratish mazkur faoliyatni amalga oshirishda dolzarb masalaligicha qolmoqda [5].

Mamlakatimizdagi islomiy moliya xizmatlarini joriy qilishda turgan muammolardan yana biri kadrlar masalasi hisoblanadi. Hozirda islomiy moliya asoslari bo'yicha alohida o'quv predmeti joriy etilgan oliy ta'lim muassasasini aytib o'tish qiyin bo'lsa kerak. Holbuki, islomiy moliya bo'yicha alohida magistrlik dasturlari nafaqat islom davlatlari universitetlari, balki AQSh va Yevropaning bir qancha universitetlarida mavjud. Bunday universitetlar sirasiga Nyu York universiteti, Dandi universiteti, Durxam universitetlari tomonidan taqdim etilayotgan dasturlarni e'tirof etib o'tish mumkin.

Fikrimizcha, mamlakatimizda islomiy moliya xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarni shakllantirish, ular sonini ko'paytirish hamda aholini mazkur xizmatlardan foydalanishiga shart-sharoit yaratib berish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchidan, islomiy moliya xizmatlarini ko'rsatish, islomiy bank ishi yuritish, islomiy prinsiplarga asoslangan qimmatli qog'ozlarni chiqarishni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish turli davlat organlari tomonidan amalga oshirilmogda va ular o'rtasidagi muvofiqlashtirish ko'zga tashlanmayapti.

Shuning uchun O'zbekiston Respublikasida islomiy moliya xizmatlarini joriy etish Konsepsiyasini qabul qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu konsepsiyada O'zbekistonda islomiy moliyalashtirishning joriy etish istiqbollari hamda aniq yo'nalishlarini belgilab olish, shuningdek, mazkur sohani tartibga soluvchi davlat organlari vazifalarini aniq belgilab olish, islomiy moliya xizmatlar ko'rsatishni tartibga soluvchi qonun hujjatlari ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlari va bunga mas'ul davlat organlarini belgilab olish zarur.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasida islomiy moliya xizmatlarini joriy etish Konsepsiyasi asosida mazkur sohani tartibga soluvchi yagona qonun hujjatini yoki sohalar bo'yicha, ya'ni bank ishi, islomiy sug'urta ishi (takoful), islomiy qimmatli qog'ozlar (suquq) emissiyasi va joylashtirishni tartibga solishga qaratilgan qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish zarur.

Uchinchidan, islomiy moliyalashtirishni tartibga solishga qaratilgan yagona qonun hujja-

ti yoki qonun hujjatlari asosida fuqarolik, soliq qonunchiligiga tegishli o'zgartirishlarni kiritish hamda mamlakatda islomiy moliya rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi amaldagi qoidalarni bekor qilish zarur hisoblanadi.

To'rtinchidan, islomiy moliya sohasida mutaxassislarni tayyorlash eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Yurtimizda Xalqaro islom akademiyasi, Imom Buxoriy nomidagi islom instituti, viloyatlarda tashkil etilgan islom o'rta-maxsus bilim yurtlarida, shuningdek, iqtisodiy va yuridik oliy yuridik ta'lim muassasalarida "islomiy moliya asoslari", "islomiy iqtisodiyot asoslari" bo'yicha dasturlarni joriy qilish hamda bu sohada mutaxassislarni tayyorlashga jiddiy e'tibor berish zarur. Ta'lim dasturlari kiritilishi bilan bir paytda mazkur sohada darslik va qo'llanmalarini tayyorlashga jiddiy e'tibor berish muhim hisoblanadi.

Beshinchidan, islom moliyasi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish zarur hisoblanadi. Buning uchun oliy iqtisodiy va yuridik ta'lim muassasalarida, sohaviy ilmiy tekshirish institutlarida mazkur soha muammolari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishni tashkillashtirish va rag'batlantirish zarur.

Mamlakatimizda islomiy moliyani joriy etish va uni rivojlantirishni kompleks va bosqichmbosqich asoslarda yondashish muhim hisoblanadi.

Mazkur yondashuv o'z ichiga yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, islomiy moliyani joriy yetish bo'yicha qonunchilik bazasini yaratish, ushbu sohada ta'lim va tadqiqot ishlarini olib borish hamda ommaviy axborot vositalari orqali keng omмага targ'ib qilishni olishi kerak.

Abstract. The article analyzes the civil-legal regime of the invention. The proposed research provides a complete picture of the concept of the invention, the content of the legal regime, existing principles, trends in the development of relations associated with the invention. In recent years, the trend of creating intellectual property in Uzbekistan and issuing legal protection documents (patents) shows the lack of legal protection for the copyright holder. At the same time, the conditions for the patentability of an invention and the complexity of the conditions for issuing a title of protection complicate the implementation of legal protection. In exercising their rights, copyright holders ineffectively use opportunities to protect not only national legislation but also international legal norms. An analysis of the legal regime of an invention shows that an invention in Uzbekistan can be adequately protected by the application of specific legal measures and mechanisms. For the legislative regulation of these issues, it is necessary to bring the legislation of Uzbekistan in the field of intellectual property in line with international requirements and ensure the protection of the right to inventions. The author firmly adheres to the position that the main direction in the search for a legal solution to these issues should be the use of information technology, artificial intelligence. The article also examines the scientific views of scientists, the strategy of the legislation of the Republic of Uzbekistan in the period of innovative development, the settlement of disputes over inventions. In conclusion, the author draws certain conclusions.

Keywords: intellectual property, industrial property, legal regime, invention, utility model, industrial design, exclusive right, court dispute, improvement of legislation.

Kirish

Jahonda insoniyat rivoji va taraqqiyotida vujudga keladigan muammolarni samarali hal qilishda intellektual mulk obyektlari alohida o'rin egallaydi. Ushbu obyektlarni huquqiy muhofaza qilish, muomalada bo'lishini ta'minlash tabiiyki alohida tadqiqotni talab qiladi.

Intellektual mulk obyektlari orasida patent huquqi bilan himoya qilinadigan sanoat mulki obyektlari alohida o'rin egallaydi. COVID-19 pandemiyasi sharoitida turli davlatlarda milliy hamda global miqyosda yaratilayotgan vaksinalar ushbu muammoni samarali hal qilishda yordam bermoqda. Intellektual mulkning ushbu obyektlari ham huquqiy, ham texnik bilimlarni talab qiladi. Shu boisdan sanoat mulki obyektlarining asosiysi – ixtironing fuqarolik-huquqiy rejimini aniqlash dolzarb ahamiyatga ega.

Bir qarashda sanoat mulki huquqi intellektual mulk huquqiga doir qonunchilik bilan tartibga solinadi va u bilan bog'liq muammo uchramaydigandek ko'rinadi. Biroq bugungi rivojlanish, yangi texnologiyalarning yaratilishi, qo'llanilishi va keng doirada undan foydalanish sanoat mulki huquqi obyekti tushunchasi va mohiyatini belgi-

lashni va unga doir munosabatlarni samarali tartibga solishning huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda.

Dunyo tajribasida intellektual mulk obyektlari, xususan, ixtirolarni huquqiy muhofaza ostiga olinishi bevosita intellektual mulk haqidagi doktrinalarning yaratilishi bilan bog'liq. Yaratilgan ixtiroga nisbatan alohida huquqiy himoyaning berilishi kelgusida yangi obyektlarning yaratilishiga olib kelgan. Natijada ixtironing ijodkori, yaratuvchi shaxslarga alohida huquqiy rejim yaratish zarurati vujudga kelgan. Zero, ixtiroga nisbatan olingan huquqiy muhofaza yorlig'i kelgusida huquq egasiga ustuvorlik, afzalliklar bergan.

Ixtiro muayyan mezon asosida huquqiy muhofaza ostiga olinadi. Ayrim ixtirolar insoniylik, hayot tarzi, turmushda foydalanish nuqtayi nazaridan himoya qilinmasligi ham mumkin. Masalan, jamoat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq qoidalariga zid yechimlar ixtiro sifatida e'tirof etilmaydi [1].

Ayrim mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yirik kompaniyalar tegishli litsenziyalarni olishda ustuvorlikni qo'lga kiritish maqsadida yangi ixtirolarga doir innovatsion axborotlarni

doimiy ravishda kuzatib bormoqda [2; 53-b.]. Yangi texnologiyalarni huquqiy himoya qilish uchun o'ziga xos erkinlikni ham taklif qiladi hamda qonunchilikda ixtiro tushunchasini keng doirada talqin qilishni nazarda tutadi [3].

Ixtironing fuqarolik-huquqiy rejimi MDH va o'zbek olimlari tomonidan kam o'rganilgan. Bugungi real holat, global raqobat sharoitida ixtironing huquqiy rejimiga doir muammolar yetarlicha huquqiy tahlil qilinmagan.

Xorijiy davlatlar olimlari mazkur masalada uzoq yillardan buyon tadqiqotlar olib bormoqda. Xususan, A.P. Sergeyev [4, 202-b.]. Y.A. Suxanov [5, 464-b.] Xavier Seuba [6] Alexandra George [7] Limeng Yu [8] va boshqalarning tadqiqot natijalari ommaga havola qilingan. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) [9] bu borada turli mavzularda konferensiyalar, kollokviumlar, kurslar tashkil etib ushbu sohada doimiy ravishda amaliy ishlar olib bormoqda.

Mazkur sohada sohalararo o'tkazilgan tadqiqotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bugungi sharoitda intellektual mulkning har bir obyekti alohida tadqiq etilmoqda. Intellektual mulk huquqi ommaviy huquq hamda xususiy huquqiy tadqiqotlarning asosiy mavzularidan biriga aylangan.

Bundan tashqari, Xavier Seuba tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda intellektual mulk huquqining himoyasi bilan shug'ullanadigan xalqaro norma va organlarning qat'iy tavsifini berish taklif qilinadi. Tadqiqot bevosita ko'p taraflama, ikki tomonlama shartnomalarni milliy miqyosda ijro qilish, fuqarolik huquqiy, xalqaro xususiy huquqiy, jinoyat qonunchiligida tatbiq etishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, intellektual mulk huquqini ta'minlash xalqaro tijorat, raqobat va inson huquqlari sohasida, shuningdek, ushbu huquqlarga rioya qilishning konseptual jihatlarini sud jarayonlarida tatbiq etish muhimligini ko'rsatib beradi [10].

Deshpande Rohan, Kamath Karan tadqiqotida sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan ixtiroga nisbatan huquqlar uning yaratuvchisiga tegishli bo'lishiga doir masalalar Hindiston huquqi nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Unda mualliflar sun'iy intellektga huquq berilishi tegishli majburiyatlarga hamda majburiyatlarni ixtirochi yoki huquq egasiga yuklashning huquqqa mosligini ko'taradi deb ko'rsatadi. Patent idoralari sun'iy intellekt tomonidan ixtironi yaratishiga, ixtirochining insofililigini aniqlashga doir murakkab

masalalarni aniqlash uchun tegishli texnologiyalar bilan qurollangan bo'lishi zarur [11] degan xulosalarga keladi.

Ryan Abbott tadqiqot ishida patent bilan muhofaza qilinadigan obyektlar doirasining kengayishiga alohida e'tibor qaratadi. Unda ko'rsatilishicha, dastlabki vaqtlarda inson geniga doir patent berishlar rad etilgan bo'lsa, 2013-yildan keyin bu ko'rsatkich o'zgarganligini va patent berish jarayoni mavjudligini ko'rsatadi. Patent huquqi rioya qiladigan prinsiplar rivojlantirilishi hamda ixtiro algoritmini yangicha qayta ko'rib chiqish zarur. Biz ushbu yangi texnologiyalarga doir o'z maqsadimizni aniqlashimiz, dunyo qanday bo'lishini tasavvur etishimiz va qonun qanday qilib bunga yordam berishi mumkin degan savollarni qo'yishni xulosa qiladi [12, 339-373-b.].

Aksariyat tadqiqot ishlarida ixtironi huquqiy muhofaza qilishda sun'iy intellektdan foydalanish, axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llash, huquq egasining vakolatlarini aniqlashga e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston, umuman Markaziy Osiyo davlatlarida ixtironing fuqarolik-huquqiy rejimi masalasi, ushbu sohadagi qonunchilikni qo'llashda yuzaga keladigan muammolar shu kunga qadar muayyan konseptual nuqtayi nazardan, yangicha yondashuv asosida nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilmagan.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida to'rtta savolga javob berishga harakat qilindi: birinchi, ixtironing huquqiy rejimini aniqlashga doir qonunchilik qay darajada samarali; ikkinchi, ushbu sohadagi huquqni qo'llash amaliyoti qay darajada shakllandi; uchinchi, qonunchilikdagi bo'shliqlarni xalqaro tajriba asosida to'ldirish zarurati mavjudmi, to'rtinchi, kelajakda ixtironing patentga layoqatlilik qanday aniqlanadi.

Mazkur savollarga javob tariqasida mualliflik nuqtayi nazari ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi. Ushbu maqola ixtironing fuqarolik-huquqiy rejimini aniqlashning konseptual, nazariy va amaliy tushunishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, statistik, sotsiologik, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Intellektual mulk huquqi, shu jumladan, sanoat mulk huquqi obyektlarini huquqiy tartibga solishga doir xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish mazkur sohani tartibga solish tizimini takomillashtirishga bo'lgan qiziqishni ham ko'rsatadi. Intellektual mulkning muayyan yangi obyektlari, ayniqsa, texnologiya, ular bilan bog'liq sanoat mulki obyektlari rivojlangan mamlakatlarda yaratiladi. Ularni huquqiy ta'minlash ham ilk bora xorijda aprobatyadan o'tishi tabiiy. Bu esa, muayyan bir davlat miqyosida tor doirada huquqiy tartibga solishni istisno etadi. Shu boisdan, "har doim velosiped ixtiro qilgandan ko'ra xorijda yaratilgan "Qulay velosiped modelini", ya'ni huquqiy konstruksiyani milliy tizimga kiritish qulayroq" bo'lishi tabiiy [13, 300-b.] Mazkur tadqiqot mavzusi ham aynan shu qoidadan kelib, xalqaro tajribada qay darajada sinovdan o'tgan masalalar bo'yicha milliy qonunchilikda yechim topish bilan bevosita bog'liq.

Huquqiy rejim tushunchasi juda keng ma'noga ega bo'lib, ushbu ibora aslida "*regimen*" lotinchadan olingan bo'lib, boshqarish ma'nosida qo'llanilgan hamda u yoki bu maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan qoidalar, chora-tadbirlar tizimini anglatadi. S. S. Alekseyev ushbu iborani umumiy tushunchada o'zaro alohida uyg'unlashgan holda ruxsat etilgan va taqiqlangan (shuningdek, ijobiy burchlar)ni huquqiy vositalar majmuida ifodalovchi tartibga solishni anglatadi [14, 334-b.] deb hisoblaydi. N.I. Matuzov va A.V. Malko huquqiy rejim huquqiy vositalarning muayyan uyg'unligida ko'riladigan alohida tartibga solish hamda kutilgan ijtimoiy holatni va aniq darajadagi ijobiy yoki salbiy holatning aniq darajasini ko'rsatadi [15, 17-b.] deb ta'kidlaydi.

G.S. Belyayevaning fikricha, huquqiy rejim huquqiy vositalar va huquqiy tartibga solish usullari muayyan uyg'unligiga asoslangan, huquq subyektlari uchun qulay (noqulay) sharoitlarni yaratish yo'li bilan ularning manfaatlarini qanoatlantirishga, optimal ijtimoiy tartibga erishishga qaratilgan, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi alohida tartib, kafolatlar va prinsiplar hisoblanadi [16, 22-25-b.].

S. Xannashi fuqarolik-huquqiy rejim borasida alohida tadqiqot olib borib, fuqarolik-huquqiy rejimni dispozitiv xarakterga ega bo'lgan, huquqiy vositalarning ixtisoslashgan uyg'unligiga asoslan-

gan (shu jumladan, huquqiy tartibga solishning umum ruxsat etilgan usullari) mulkiy va shaxsiy nomulkiy xususiyatga ega ijtimoiy munosabatlarni alohida tartibga solinishi sifatida e'tirof etadi [17, 5-7-b.].

Y.A. Suxanovning ta'kidlashicha, fuqarolik-huquqiy rejim obyektlarga nisbatan muayyan harakat (bitim)ni sodir etish imkoniyatini beradi yoki buni inkor etadi va buning natijasida ma'lum huquqiy (fuqarolik-huquqiy) natija keltirib chiqaradi [18, 295-b.]. Demak, huquqiy rejim o'rnatilgan qoida bo'lib, huquqiy normalar asosida amal qiladi hamda huquqiy mexanizm bilan ta'minlanadi.

Parij konvensiyasi sanoat mulkini keng ma'noda talqin etib, sanoat mulkining muhfaza obyektlari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: 1) ixtirolar; 2) foydali modellar; 3) sanoat namunalari; 4) tovar belgilari; 5) xizmat ko'rsatish belgilari; 6) firma nomi; 7) geografik nomlar; 8) tovarni kelib chiqish joyi nomi; 9) g'irrom raqobatning oldini olish (1, 2 modda). Bundan kelib chiqadiki, vaqt o'tishi bilan sanoat mulki obyektlari doirasi muayyan darajada kengaygan. Go'yoki sanoat mulki obyektlari doirasi uning mazmun-mohiyatiga mos kelmaydigandek ko'rinadi. Hozirgi kunda ham sanoat mulki obyektlarining ushbu turlari Parij konvensiyasi mazmunida saqlanib qolgan. Demak, sanoat mulki obyekti keng ma'noda tushunilishi qabul qilingan va u nafaqat sanoat, balki tijorat, qishloq xo'jaligi, qazish sanoati sohalari, shuningdek, har qanday sanoat yoki tabiiy ishlab chiqariladigan mahsulotlar – vino, don, tamaki, gul, un, kimyo, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va boshqa sohalarni ham qamrab oladi.

Tadqiqot natijalari va uning tahlili

O'zbekiston Respublikasi yuqoridagi konvensiya a'zosi hisoblanadi va tabiiyki, o'zining milliy qonunchiligini unda belgilangan talablarga moslashtirishga harakat qilgan. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagi "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonunida ikki tomonlama yondashuv kuzatiladi. Bu o'rinda qonun chiqaruvchi "ixtiro, foydali model va sanoat namunasi" tushunchalarini ayniy tushuncha sifatida ifodalaydi. Qonunning nomlanishidagi sanoat mulki obyektlari sifatida ixtiro, foydali model va sanoat namunasi sanab o'tilgan va ushbu holat qonunning bir qator (6, 7, 8 va boshqa) moddalarida normalan-

gan. Qonunning 2-moddasida esa, sanoat mulki obyektlari to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir deb belgilanadi va "sanoat mulki obyekti" iborasi boshqa (2, 3, 4, 5, 9–11 va boshqa) moddalarida ham qo'llaniladi.

Bu o'rinda sanoat mulki obyekti sifatida nima tan olinadi? degan o'rinli savol tug'iladi. O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga ko'ra, har qanday sohada mahsulotga (xususan, qurilma, modda, mikroorganizm shtammi, o'simliklar yoki hayvonlar hujayralarining turlariga) hamda usulga (moddiy vositalar yordamida moddiy obyekt ustida xatti-harakatlarini amalga oshirish jarayoniga) taalluqli bo'lgan texnik yechim ixtiro sifatida e'tirof etiladi. Demak, bu o'rinda mahsulot hamda usulga nisbatan ixtiro huquqiy muhofaza ostiga olinadi. Xuddi shunday talab foydali modelga nisbatan ham qo'llaniladi. Bunda patentga layoqatlilik sharti bo'yicha ushbu sanoat mulki obyektlari farqlanadi. Sanoat namunasi esa buyumning tashqi ko'rinishini ifodalaydigan badiiy-konstruktorlik yechimi bo'lmog'i zarur.

Huquq sohalari orasida an'anaviy huquq sohalari asosiy o'rin egallaydi. Masalan, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi va h.k. Biroq biopatent huquqi alohida huquq sohasiga da'vo qilinishi da uning huquqiy metodologiyasi, tartibga solish predmeti va metodi, tizimi mavjud bo'lishi va tan olinishi zarur. Boshqa tarafdin esa huquq instituti sifatida e'tirof etilishi uchun muayyan yuridik normalar tizimida o'zaro bog'langan normalar guruhi bo'lishi lozim. Huquqiy institut muayyan munosabatlar turini tartibga soluvchi nisbatan kichik bo'lgan barqaror huquqiy normalar guruhi, ijtimoiy munosabatlarning o'z mazmuniga ko'ra o'xshash va yaqin muayyan bir turini tartibga soladigan huquq normalari guruhidan iborat bo'ladi [19, 541-b.]. Shu boisdan, intellektual mulk obyektini muayyan institut doirasida o'rganiladigan obyekt alohida huquq sohasi sifatida tan olinishi maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

AQShda patent olishga doir huquqiy munosabatlar AQSh federal qonunchiligi kodeksi 35- (Patents) va 17-bo'limlari (Copyrights) bilan tartibga solinadi. Boshqa ayrim mamlakatlardan farqli ravishda AQShda texnik yechim faqat ixtiro sifatida patentlanishi mumkin. Bunda ixtiro jara-

yon, mashina (mexanizm), ishlab chiqarish usuli, materiya tarkibi yoki ularning yaxshilanishi tushuniladi [20].

Butunjahon intellektual mulk tashkilotining statistik ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2015-yilda asosan 10 ta davlat patent idorasi tomonidan talabnomalar berilgan. Bunda AQSh va Germaniya dastlabki o'rinlarni egalagan [21]. Dunyo bo'yicha 2019-yilda 3 226 100 ta patentga talabnoma berilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2020-yilda 3 276 700 tani tashkil qilgan va o'sish sur'ati 1,6 foizni tashkil qilgan [22] 2009-, 2014-, 2019-yillarda berilgan patent talabnomalari elektr injeneriyasi, mahsulotlar, kimyo, mexanik injeneriya hamda boshqalardan iborat bo'lgan. So'nggi yillarda xususan 2017–2019-yillarda audiovizual texnologiya, telekommunikatsiya, raqamli texnologiya, kompyuter texnologiyasi, boshqaruvda IT metodlari, biotexnologiya, farmatsevtika kabi sohalarda patent talabnomalari berilishi o'sganligini ko'rish mumkin [23], Albatta, ushbu ko'rsatkichning o'sishi iqtisodiy, ijtimoiy muammolar sharoitida erishilgan muhim ilmiy natija sifatida baholanishi zarur.

2018-yilda patent, tovar belgilari va sanoat namunalariga nisbatan so'ralgan talabnomalarning uchdan ikki qismi Osiyo mamlakatlari hisobiga to'g'ri kelgan. Bunda Xitoyning o'zi tomonidan so'ralgan patentlar soni (1,54 million) butun dunyo ko'rsatkichining deyarli yarmi to'g'ri kelgan. Mazkur yilda novatorlar tomonidan jami 3,3 million patent talabnomalari berilgan va to'qqiz yillik o'sish tendensiya o'zgarmasdan qolgan va u 5,2 foizni ko'rsatgan. 2018-yilda amaldagi patentlar 6,7 foizga o'sgan va 14 millionni tashkil etgan. Shundan deyarli 3,1 million patent AQShda amal qilgan, keyingi o'rinlarda Xitoy (2,4 million) va Yaponiya (2,1 million) turadi. AQShda amalda bo'lgan patentlarning aksariyati chet eldan kelganligi kuzatilgan [24].

Sud amaliyoti borasida Xitoy Xalq Respublikasi tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, da'vogar – Giesecke & Devrient (China) Information Technologies Co., Ltd. Javobgar – China National Intellectual Property Administration nisbatan da'vo ariza kiritilgan. Da'vogar foydali modelga nisbatan (A Financial Trading Card with 3D Printed Graphic Surface" (Patent No.: 201520879638.7) patentga talabnoma bergan. Giesecke & Devrient patent egasi bo'lib, Gemalto & Hou uchinchi shaxs

sifatida da'vogar tomonidan ixtiro formulasida patent to'g'risidagi qonunchilikka rioya qilinmaganligi sababli berilgan patentni haqiqiy emas deb topishni so'ragan. Qayta ekspertiza o'tkazish natijasida ixtironing formulasi ijodiylik xususiyatiga ega emasligi va qonunchilikda belgilangan talabga muvofiq kelmasligi aniqlangan va barcha patentni haqiqiy emas deb topishni talab qilgan. Sud ushbu talablarni qanoatlantirish haqida qaror qilgan. O'z navbatida, Giesecke & Devrient ushbu qarorga norozilik bildirib, intellektual mulk bo'yicha Pekin sudiga murojaat qilib, qarorni bekor qilishni va qayta ko'rib chiqishni talab qilgan. Sud esa ushbu talablarni qanoatlantirishni rad qilgan [25].

Bundan ko'rinadiki, patent to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan talablarga rioya qilmaslik yoki qonunga zid ravishda olingan huquqiy muhofaza hujjati – patent tegishli ekspertiza natijasida haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, patent egasi uchun muayyan huquqiy oqibatni keltirib chiqaradi.

Milliy statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, sanoat mulkining muhim tarkibiy qismini tashkil etuvchi ixtirolarga nisbatan 2015-yilda milliy talabnomalar 288 ta, xalqaro talabnomalar 219 ta, 2016-yilda milliy talabnomalar 353 ta, xalqaro talabnomalar 202 ta, 2017-yilda milliy talabnomalar 357 ta, xalqaro talabnomalar 196 ta, 2018-yilda milliy talabnomalar 470 ta, xalqaro talabnomalar 180 ta, 2019-yilda milliy talabnomalar 374 ta, xalqaro talabnomalar 169 ta, 2020-yilda milliy talabnomalar 356 ta, xalqaro talabnomalar 232 tani tashkil etgan [26].

Yuqoridagi ko'rsatkichdan shu holat anglashiladiki, pandemiya ijod erkinligini namoyish qilishga, yangi intellektual mulk obyektlarini yaratish va huquqiy muhofaza hujjatlarini olishga bo'lgan intilishga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Shunday bo'lsa-da, ixtironing inson taraqqiyotidagi o'rni tobora ortib borayotgan sharoitda unga doir huquqiy muhofazalash, huquq egalarining manfaatlarini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

RFda tibbiy davolanish maqsadlarida biotibbiyot mahsulotlarini muomalasini tartibga soluvchi alohida qonun qabul qilingan [27]. Bu qonun biotexnologiya sohasini tartibga soluvchi muhim tartibga solish yukiga ega bo'lgan qonun sifatida ko'rilishi mumkin. Biroq yangi biotexnologiya mahsulotlarini ishlab chiqarish, aprobatsiyadan o'tkazish, uni qo'llash bevosita inson omili bilan

bog'liq. Uning sinovdan o'tishi uchun muayyan inson resurslari safarbar etiladi. Mazkur jarayonda insonning ishtiroki ixtiyoriylik prinsipiga asoslanishi, xavfsizlik tizimi qo'llanilishi zaruriy shart.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonunining 34-moddasida insonni obyekt sifatida jalb etib, biologik-tibbiy tadqiqot o'tkazishga faqat laboratoriya tajribalari o'tkazilganidan va fuqaroning yozma roziligi olinganidan keyingina davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida yo'l qo'yilishiga doir muhim prinsip belgilab qo'yilgan [28].

Qayd etish lozimki, rivojlangan mamlakatlarda biotibbiyotga doir tadqiqotlar asosiy o'rinni egallamoqda. Olingan natijalar esa yirik daromad keltirishi bilan bir qatorda huquqiy tartibga solish tizimiga ham ega. Bu borada alohida xalqaro darajada qabul qilingan hujjatlar ham mavjud [29].

Kam ahamiyatli ixtirolar va inqilobiy ahamiyatga ega bo'lgan ixtirolarga nisbatan bir xil yondashuv bo'lishi to'g'rimi? Avvalo, har qanday patent egasi, o'zining mutlaq huquqni qo'lga kiritishi orqali bozorda monopol mavqeni ta'minlash va ko'p foyda olishni ko'zlaydi. Boshqa tarafdin esa, raqobatchilarning ishlab chiqarish va bozorda huquqining yo'qligi soha rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Bu borada huquq egasining o'zi erk-irodasi asosida mazkur masalaga yondashadi.

Sanoat mulki obyekti haqidagi ma'lumotlarning ochiqqligi, asosan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchilarning fikricha, patentlar olimlarni sanoatchilar bilan hamkorlik qilishga undaydi. Bu borada muayyan tajribalar ham yaratilgan. Jumladan, dastlabki yarim sintetik penitsillin ishlab chiqarishda aynan shunday holat kuzatilgan. Sheyxan (huquq egasi)ning patent olishga bo'lgan motivi *Bristol Laboratories* bilan hamkorlik qilish bo'lgan. *Beecham* kompaniyasida patent muhofazasining mavjudligi *Bristol Laboratories* kompaniyasiga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish sirlari nou-xou bilan o'rtoqlashishga ko'ndirishga urintirgan. Biroq ushbu harakat natija bermagan va ular o'rtasida uzoq muddatli nizo ko'rib chiqilgan [30].

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, inqilobiy ixtirolar tez va ko'p xarajatlarsiz, asosan sanoati rivojlangan mamlakatlarda tarqalgan. Huquq egasida patent mavjud bo'lsa-da, muayyan doirani qam-

rab olishga xalaqit bermagan. Fleming tomonidan penitsillinning yaratilishi ham bu kabi obyektni patentlanmasligiga olib keldi. Patentlash jarayonining mavjud bo'lmashligi esa dorilarni tez tarqalishiga sabab bo'lgan.

Bugungi kunda sun'iy intellektga asoslangan sanoat mulki obyektlariga huquqiy muhofaza hujjatlarini olish jarayoni keng kuzatilmoqda. Agar e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1998-yildan sun'iy intellekt sohasida doimiy o'sish kuzatilgan. Har yili 2012-yildan boshlab to 2017-yilgacha 103 ta kompaniya mutlaq huquqni qo'lga kiritgan.

Alphabet kompaniyasi (uning portfeliga *Google*, *DeepMind*, *Waymo* va *X Development* kiradi), ixtirolarga beriladigan talabnomalar (3 814 ta) bo'yicha faqatgina 10-o'rinni egallaydi va sun'iy intellekt sohasida huquqiy muhofaza olgan kompaniyalarning yetakchisi hisoblanadi. *Apple* va *Microsoft* kompaniyalari ham boshqa tashkilotlar va ularga tegishli huquqlarni xarid qilish bilan faol shug'ullanishgan. *IBM* va *Intel* kabi kompaniyalar asosiy e'tiborini yetuk kompaniyalarga qaratgan bo'lsa-da, olingan kompaniyalar – startaplar hisoblanadi va ularning ba'zilarining potfelida patentlar bo'lsa, boshqalarida hech qanday huquqiy muhofaza hujjatlari bo'lmagan. Bu degani, kompaniyalar xarid qilishning asosiy maqsadi muayyan aktivlarni, professional kadrlarni, shuningdek, ma'lumotlar bazasi, nou-xau va boshqa intellektual mulk huquqlarini qo'lga kiritish hisoblanadi [31].

Hozirgi vaqtda intellektual mulk huquqi sohasidagi mavjud muammolardan biri bu intellektual mulkning mavjud tizimiga asoslanuvchi transparentlik prinsipi bilan bevosita bog'liq. Haqiqatan ham huquqiy muhofaza hujjati talab qilinmasa-da (masalan, mualliflik huquqiy himoya obyektiga), har qanday subyekt istalgan intellektual mulk obyektiga nisbatan huquqiy muhofaza hujjatini olishi mumkin. Bunda sanoat mulki obyektiga nisbatan huquqiy muhofaza hujjatini olishning muayyan shartlari mavjud. Avvalo, talabgor yangi texnologiya, yangi buyum yoki yangi xizmatga nisbatan axborotni oshkor qilishi zarur. Bu degani, boshqa shaxslar texnologiyani, buyum yoki xizmatni kimga tegishliligi hamda u bilan bog'liq huquqlar haqida ma'lumot olishga imkon beradi. Bunday yondashuv o'ziga xos o'rin tutadi. Chunki, asosiy maqsad mavjud huquqlarni samarali ayirbosh-

lash va ulardan texnologiyani rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ijtimoiy taraqqiyot maqsadida faol foydalanishga imkon berishi zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, intellektual mulk tizimining muhim jihati bo'lib transparentlik hisoblanadi. Bir qator yangi texnologiyalar, kriptο aktiv, kriptο valyuta, elektron to'lovlar, "blokcheyn" kabi yangi texnologiyalarning vujudga kelishi tegishli yozuvlarni, ma'lumotlarni saqlay oladigan mukammal tizim mavjud bo'lishini taqazo etadi. Bu esa davlat hamda xususiy soha chegarasini butunlay yo'q qilib yuborishi mumkin.

Ixtirochilik huquqi – yangi, ixtirochilik darajasidagi, sanoatda qo'llash mumkin bo'lgan va huquqiy muhofaza qilinadigan patent berish orqali rasmiylashtirilgan obyektga bo'lgan muallif (ixtirochi)ning huquq va majburiyatlarini tartibga soladigan va mustahkamlaydigan huquq normalari yig'indisi. Ixtirochilik huquqi maxsus huquqiy institut, tizimlashtirilgan yuridik normalar sifatida O'zbekistonda 20-asrning 20-yillari boshlaridan boshlab namoyon bo'lgan. Ko'pgina adabiyotlarda patent huquqi deb ham nomlanadi. Ixtirochilik huquqini adabiyotlarda hamda huquq amaliyotida fuqarolik huquqining o'ziga xos kichik tarmog'i (podotrasl) va hatto fuqarolik huquqi instituti sifatida qarash konsepsiyasida nazariy jihatdan olganda mukammallik yo'q, chunki u ixtirochilik munosabatlari huquqining boshqa tarmoqlari bilan ham tartibga solinadi [32].

Yuridik adabiyotlarda patent huquqi mustaqil huquqiy institutlarni birlashtirishi qayd etiladi. Bular patent (ixtiro) huquqi va sanoat dizayni (namunasi) huquqi, shuningdek, intellektual huquqlarni himoya qilish nuqtayi nazaridan unga yaqin bo'lgan seleksiya yutuqlari hisoblanadi. Ular o'rtasidagi farq himoya ostidagi obyektning mohiyati bilan belgilanadi. Bunda foydali model ixtironing bir alohida turi sifatida ko'riladi [33, 315-b.].

O'zbek tilining izohli lug'atida ko'rsatilishi-cha, ixtiro – yangilik, yangilik yaratish, o'ylab chiqarish ma'nosini beradi. Fan-texnika sohasida kashf etilgan, ijobiy samara beradigan yangilik, kashfiyot [34, 247-b.].

A. Raxmatovning fikricha, patent egasi huquqining mutlaqlik xususiyati uni mulk huquqi-

ga yaqinlashtiradi. Patent egasi huquqining tarkibi mulk huquqi bilan o'xshashligi patent huquqi faniga patent egasining huquqini xilma-xil huquq sifatida ko'rib chiqishga sabab bo'ldi [35]. Biroq garchi intellektual mulk obyektlariga nisbatan mulk huquqiga yaqin bo'lgan nazariyalar mavjud bo'lsa-da, har doim ham mustasno huquq konsepsiyaga mos kelmaydi.

Xulosalar

Ixtironing fuqarolik-huquqiy rejimi fuqarolik qonunchiligida o'rnatilgan qoidalar yig'indisi bo'lib, huquqiy rejim huquqiy normalar vositasida amal qiladi hamda huquqiy mexanizm bilan amalda ta'minlanadi. Huquqiy rejim bevosita fuqarolik muomalasida bo'lish yoki bo'lmaslik, huquqiy himoya (patentga layoqatlilik) shartlarining mavjud bo'lishi yoki bo'lmasligi, huquq egasiga alohida ustuvorlik berish zaruratini o'zida ifodalaydi. Sun'iy intellektning ushbu sohaga tatbiq etilishi ixtironing patentga layoqatliligini aniqlash, o'xshash (analog)larni topish va taqqoslash, qaysi davlat hududida patent olish imkoniyati samarali bo'lishini baholashga imkon beradi.

Bugungi kunda sanoat mulki obyektlariga nisbatan qo'llaniladigan doktrinalardan biri bu – Fair use – “insofli foydalanish” doktrinasidir. Ushbu doktrina jahonning yetakchi davlatlari qonunchiligiga singdirilgan bo'lib, muayyan holatlarda mualliflik huquqi egasining roziligisiz va unga haq to'lamagan holda, tanqid, yangiliklar hisoboti, ta'lim va ilmiy-tadqiqot ishlarida so'zma-so'z havola olishga imkon beradi. Mazkur prinsip milliy qonunchiligimizga ham singdirilgan. Ixtiroga nisbatan huquqiy himoyaning mudatliligi ushbu prinsipni ro'yobga chiqarishga imkon beradi.

Ixtiro, odatda, texnik muammoning ijodiy yechimi sifatida namoyon bo'ladi. Ijod qilish esa faqat insonga xos bo'lgan xususiyat hisoblanadi. Shu boisdan, inson ishtirokisiz kechadigan jaryonlar, mahsulotlar ixtiro sifatida tan olinmaydi. Masalan, yerga tushgan meteorit (tabiiy mahsulot) yoki shimoliy qutb yog'dusi (tabiiy hodisa) ixtiro hisoblanmaydi.

Shu bilan birga, ixtiro predmeti tabiiy analogga mos bo'lgan, biroq sun'iy ravishda yaratiladi-

gan mahsulot bo'lishi mumkin. Masalan, tabiiy sut mahsuloti mavjud bo'lsa-da, uni ishlab chiqarish texnologiyasining ixtiro qilinishi. Bunda ishlab chiqarish usuliga berilgan patent mahsulotning o'ziga nisbatan ham tatbiq qilinadi.

Ayrim hollarda huquqni qo'llash amaliyotida nizoni hal qilish jarayonida intellektual mulkda qo'llaniladigan qoida, prinsiplarni bilmaslik holatlari ham kuzatiladi. O. Oqyulovning ta'kidlashicha, sudlar mutlaq huquqni o'tkazish to'g'risidagi shartnomalarni huquq egasining mutlaq huquqni tasarruf etishi emas, balki mutlaq huquqdan foydalanish vakolatini amalga oshirish sifatida talqin etib, xorijiy investorlar ko'z o'ngida mamlakatda investitsiya jozibadorligi holatiga salbiy ta'sir ko'rsatdilar [36]. Bu esa, o'z navbatida, nafaqat nizodagi taraflarning huquqlarini himoyasini samarali ta'minlash, balki manfaatdor shaxslarga tizimli ta'sir ko'rsatishga olib kelishi mumkin.

Qonunchilikda sanoat mulki obyektlarini, xususan, ixtironing fuqarolik muomalasida bo'lishiga doir talablar yetarli emas. Bu, o'z navbatida, huquq egalariining mustasno huquqlarini amalga oshirish va tasarruf etishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida”gi Qonunida quyidagi mazmunda alohida bob kiritish maqsadga muvofiq:

“VI¹. Sanoat mulki obyektlariga nisbatan mustasno huquqni tasarruf etish.

33¹-modda. Sanoat mulki obyektlariga nisbatan mustasno huquqni tasarruf etishga doir shartnoma.

Sanoat mulki obyektlariga nisbatan mustasno huquqni tasarruf etishga doir shartnoma (patentni tasarruf etish shartnomoasi)ga muvofiq, bir taraf (patent egasi) o'ziga tegishli bo'lgan muayyan intellektual faoliyat natijasi (ixtiro, foydali model, sanoat namunasi)ga nisbatan mustasno huquqni to'la hajmda boshqa taraf – mutlaq huquqni oluvchi (patentni oluvchi)ga topshiradi yoki topshirish majburiyatini oladi.

Sanoat namunasiga nisbatan mustasno huquqni, agar bu iste'molchini muayyan tovar yoki uni ishlab chiqaruvchisi borasida chalg'ishiga olib kelsa, huquqni tasarruf etishga yo'l qo'yilmaydi”.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan "On Inventions, Utility Models and Industrial Designs"]. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi – Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, 2002, no. 9, Art. 158.
2. Li Y. Imitation to Innovation in China. Cheltenham, UK: Edward Elgar, 2010, p. 53.
3. Standing Committee of the National Peoples Congress. Patent Law, Order No. 8 of the Chairman of the Peoples Republic of China.
4. Sergeev A P. Patentnoe pravo. Uchebnoe posobie [Patent law. Tutorial]. Moscow, BEK Publ., 1994, 202 p.
5. Grajdanskoe pravo. Uchebnik v 4 t. Otv. red. Y. A. Suhanov. 2-e izd., pererab. i dop. Veshnoe pravo. Nasledstvennoe pravo. Intellektualnie prava. Lichnie neimushchestvennie prava [Civil law. Textbook in 4 t. Responsible. ed. I. A. Sukhanov. 2nd ed., revised. and add. Property law. Inheritance law. Intellectual rights. Moral rights]. Moscow, Statut, 2019, vol. 2, 464 p.
6. Seuba H. The Global Regime for the Enforcement of Intellectual Property Rights. Available at: <https://www.cambridge.org/core/terms/>. DOI: <https://doi.org/10.1017/9781108231510/>.
7. George A. Constructing Intellectual Property. Available at: <https://www.cambridge.org/core/terms/>. DOI: <https://doi.org/10.1017/CBO9781139035361/>.
8. Limeng Y. Industry-Specific Study of Patent Law and Innovation in Chinas Telecommunications Industry. Available at: www.cambridge.org/core/terms/. DOI: <https://doi.org/10.1017/9781108163583.007/>.
9. World Intellectual Property Indicators Report: Worldwide Trademark Filing Soars in 2020 Despite Global Pandemic. Available at: <https://www.wipo.int/portal/en/index.html/>.
10. Seuba H. The Global Regime for the Enforcement of Intellectual Property Rights. Available at: <https://www.cambridge.org/core/terms/>. DOI: <https://doi.org/10.1017/9781108231510/>.
11. Patentability of inventions created by AI – the DABUS claims from an Indian perspective. Journal of Intellectual Property Law & Practice, 2020, no. 11. DOI: 10.1093/jiplp/jpaa146/.
12. Abbott R. Inventive Algorithms and the Evolving Nature of Innovation. The Cambridge Handbook of the Law of Algorithms , pp. 339-373. DOI: <https://doi.org/10.1017/9781108680844.017/>.
13. Okyulov O. Issues of increasing the effectiveness of the impact of intellectual property law institutions in ensuring the development of innovation. Tashkent, Turon Zamin Ziyo Publ., 2016, 300 p.
14. Alekseev S.S. Voshozhdenie k pravu. Poiski i resheniya [Rise to the right. Searches and solutions]. Moscow, NORMA Publ., 2001, p. 334.
15. Matuzov N.I., Malko A.V. Pravovie rejimi: voprosi teorii i praktiki [Legal Regimes: Issues of Theory and Practice]. Pravovedenie – Jurisprudence, 1996, no. 1, p. 17.
16. Belyaeva G. K voprosu o razgranichenii pravovogo rejima i inix smejnix yuridicheskix kategoriy [On the issue of delimitation of the legal regime and other related legal categories]. Gosudarstvenniy sovetnik – State Councilor, 2013, no. 4, pp. 22–25.
17. Hannashi S. K voprosu o sushnosti grajdansko-pravovogo rejima [To the question of the essence of the civil law regime]. Gosudarstvenniy sovetnik– State Councilor, 2014, no. 4 (8), pp. 5–7.
18. Grajdanskoe pravo. Uchebnik v 2-h tomah. Pod red. E.A. Suhanova [Civil law. Uchebnik v 2-h tomah. Under red. E.A. Suhanova]. Vol. 1, 295 p.
19. Matuzov N.I., Malko A.V. Theory of Government and Rights. 2nd ed. Moscow, Jurist, 2005, 541 p.
20. United States Code Title 35 – Patents, Currentas of August 31, 2017. Available at: https://www.uspto.gov/web/offices/pac/mppe/consolidated_laws.pdf/.
21. WIPO, World Intellectual Property Indicators 2016. Available at: www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_941_2016.pdf.
22. The annual World Intellectual Property Indicators Report (WIPI) and China's IP boom. Available at: <https://ipkitten.blogspot.com/2021/11/the-annual-world-intellectual-property.html/>.
23. World Intellectual Property Indicators 2021. Available at: https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_941_2021.pdf.
24. China's top 20 patent cases of 2020: Giesecke & Devrient v. CNIPA. Available at: <http://www.chinaipmagazine.com/en/journal-show.asp?id=1798/>.
25. Intellektual mulk agentligi [Intellectual Property Agency]. Available at: <https://my.ima.uz/>.
26. Federal Law of June 23, 2016 N 180-FZ "On Biomedical Cell Products". Russian newspaper – Federal issue, June 28, 2016, no. 139 (7007).

27. Law of the Republic of Uzbekistan on Public Health. Available at: <https://www.lex.uz/acts/26013/>.
28. Universal Declaration on the Human Genome and Human Rights of 11 Nov. 1997. Available at: <http://new.iacis.ru/activities/documents> (29. https://www.wipo.int/pressroom/ru/articles/2019/article_0012.html/).
30. Doklad o polozhenii v oblasti intellektualnoy sobstvennosti v mire. Revolyutsionnie innovatsii i ekonomicheskiy rost [Report on the state of intellectual property in the world. Revolutionary innovation and economic growth]. WIPO, 2015, pp. 71-72. Available at: https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/ru/wipo_pub_944_2015.pdf/.
31. Frensis Garri o budushem intellektualnoy sobstvennosti: vozmojnosti i problemi. Sentabr 2017. Doklad VOIS 2019 g. Tendentsii razvitiya texnologii. Kratkoe izlojenie Iskusstvenniy intellekt [Francis Gurry on the Future of Intellectual Property: Opportunities and Challenges. September 2017 WIPO 2019 Technology Trends Report Executive Summary Artificial Intelligence]. P. 11. Available at: https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/ru/wipo_pub_1055_exec_summary.pdf/.
32. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi [Encyclopedia of Law of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat Publ., 2009, p. 224.
33. Grajdanskoe pravo. Uchebnik v 4 t. Otv. red. Y. A. Suhanov. 2-e izd., pererab. i dop. Veshnoe pravo. Nasledstvennoe pravo. Intellektualnie prava. Lichnie neimushestvennie prava [Civil law. Textbook in 4 t. Responsible. ed. I. A. Sukhanov. 2nd ed., revised. and add. Property law. Inheritance law. Intellectual rights. Moral rights]. Moscow, Statut, 2019, vol. 2, 464 p.
34. O'zbek tilining izohli lug'ati [Annotated dictionary of the Uzbek language]. Tashkent, National Encyclopedia of Uzbekistan, vol. 2, 2006, p. 247, 672 p.
35. Raxmatov A. Patent huquqi. O'quv qo'llanma [Patent law. Study guide]. Tashkent, TSUL, 2021, p. 60.
36. Oqyulov O. Madaniy qaroqchilik huquqbuzarlik tizimi sifatida [Cultural piracy as a crime system]. UZA, August 2020, p. 18.
37. Universal Declaration on Bioethics and Human Rights of 19 October 2005. Available at: http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/genome_dec.shtml/.
38. Model law "On the protection of human rights and dignity in biomedical research in the CIS member states", 18 Nov. 2005. Available at: http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/bioethics_and_hr.shtml;
39. Recommendations "On the ethical and legal regulation and safety of genetic medical technologies in the CIS member states", October 31, 2007. Available at: <http://base.garant.ru/70385696/>.
40. International Declaration on Human Genetic Data of 16 oct. 2003. Available at: <http://www.unesco.ru/ru/?Module=news&action=theme&id=116/>.

UDC: 339.1(042)(575.1)
ORCID: 0000-0001-8404-1296

TABIY MONOPOLIYA SOHALARIDA RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI

Ibragimova Aziza Ruziboyevna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Biznes huquqi” kafedrası katta o‘qituvchisi,
e-mail: a.ibragimova@tsul.uz

Annotatsiya. Tabiiy monopoliyalar Markaziy Osiyo mamlakatlarida, shuningdek, sobiq Ittifoq mamlakatlarida hanuzgacha mavjud bo‘lib qolayotgan, iqtisodiyotning yetakchi hamda muhim tarmoqlarida ishlab kelayotgan korxonalar sifatida saqlanib qolmoqda. Tabiiy monopoliyalar sohasiga raqobatni olib kirish, raqobat muhitining huquqiy asoslarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir. Mazkur maqolada tabiiy monopoliyalarning genezisi, mohiyati masalalariga to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, tabiiy monopoliya sohalarda raqobat muhitini shakllantirish muammolari tahlil qilingan. Maqolada tarixiy-empirik, sintaksis, huquqiy tahlil metodlaridan foydalanilib, tabiiy monopoliya institutining iqtisodiyotdagi ahamiyati, ayrim tarmoqlarning tabiiy monopoliya sohasi bo‘lganligi uchun ham muttasil ravishda zarar bilan ishlayotganligi, sohada sifat va narx jihatdan iste’molchilarning e’tirozlariga sabab bo‘layotgan omillarning mavjudligi o‘rganib chiqilgan. Hozirgi paytda O‘zbekiston qonunchiligida tabiiy monopoliyalarning huquqiy jihatdan tartibga solinishi masalalari atroflicha o‘rganilib, joriy qonunchilikning zamon talablariga javob bermay qolgan xususiyatlari muhokama qilingan. Tabiiy monopoliya sohalarining amaliyotda raqobatchilari mavjud bo‘lgan ayrim tarmoqlarni tabiiy monopoliya sohalaridan chiqarish, ayrim tarmoqlarga esa davlat-xususiy sheriklik institutini joriy etish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tabiiy monopoliya, raqobat, miqyos jihatdan samaradorlik, davlat-xususiy sheriklik, narx, iqtisodiy afzallik, zarar, raqobatchilar, tabiiy monopoliya subyektlari.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ В СФЕРЕ ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ

Ибрагимова Азиза Рузибоевна,
старший преподаватель кафедры «Бизнес-право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Естественные монополии сохраняются в Центральной Азии, а также в странах бывшего Советского Союза в качестве предприятий, работающих в ведущих и важных секторах экономики. Внедрение конкуренции в сферу естественных монополий, совершенствование нормативно-правовой базы конкурентной среды – одна из актуальных проблем. В статье рассматриваются генезис и сущность естественных монополий, анализируются проблемы создания конкурентной среды в сфере естественных монополий. В статье использованы методы историко-эмпирического, синтаксического, правового анализа, а также изучена важность института естественной монополии в экономике, установлен тот факт, что некоторые отрасли находятся в убыточном состоянии из-за того, что все они являются естественными монополиями, а также наличия в отрасли факторов, вызывающих неудовлетворенность потребителей по качеству и цене. Кроме того, в данной статье изучены вопросы правового регулирования естественных монополий в настоящее время в законодательстве Узбекистана, подробно обсуждены особенности действующего законодательства, не отвечающие современным требованиям. Рассмотрены вопросы ликвидации некоторых секторов в существующих естественных монополиях и внедрения механизма государственно-частного партнерства в них.

Ключевые слова: естественная монополия, конкуренция, эффективность по масштабу, государственно-частное партнерство, цена, экономическая выгода, убыток, конкуренты, субъекты естественных монополий.

THEORETICAL AND LEGAL ISSUES OF FORMING COMPETITIVE ENVIRONMENT IN THE FIELD OF NATURAL MONOPOLIES

Ibragimova Aziza Ruziboyevna,
Senior Lecturer of
Department of Business Law of
Tashkent State University of Law

Abstract. Natural monopolies remain in Central Asia, as well as in the countries of the former Soviet Union as enterprises operating in leading and important sectors of the economy. Creating and developing the competitive environment in natural monopoly spheres is one of the urgent problems. The article examines the genesis and essence of natural monopolies, analyzes the problems of creating the competitive environment in the field of natural monopolies. The methods of historical-empirical, syntactic, and legal analysis are used in the article and the importance of the institution of natural monopoly in the economy, the fact that some companies are constantly operating with a loss due to the fact that they belong to natural monopoly spheres and the presence of them cause consumer dissatisfaction with quality and price are analysed in the article. The issues of legal regulation of natural monopolies in Uzbekistan are studied, the gaps in the current legislation that do not meet modern requirements are discussed. The issues of elimination of some existing sectors of a natural monopoly are put forward, as well as the use of public-private partnerships in some sectors is considered.

Keywords: natural monopoly, competition, scale efficiency, public-private partnership, price, economic benefit, loss, competitors, subjects of natural monopolies.

Davlatning iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim tayanch bu turli tarmoqlarda raqobat muhitining shakllanganligidir. Bundan kelib chiqib davlat barcha sohalarda raqobat uchun sharoitlarni yaratishga, tegishli qonunchilikni muntazam ravishda iqtisodiy rivojlanishga moslab takomillashtirib borishga intiladi. Raqobat qonunchiligiga zid faoliyat olib borayotgan korxonalarga nisbatan o'zining murosasiz pozitsiyasini ifodalaydi.

Bozor iqtisodiyoti esa insofli va sog'lom raqobat orqali rivojlanib boradi [1].

Jamiyatlardagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa yo'nalishlardagi o'zgarishlar (dinamik jarayonlar) zamonaviy davlat boshqaruv tizimlari oldiga ham yangi vazifalarni qo'yib kelmoqda. Binobarin, davlat boshqaruvini takomillashtirish dinamik va dialektik jarayon bo'lib, u jamiyat rivojining ehtiyojlaridan kelib chiqadi [2].

Tarmoqlarning samarali ishlashi va muttasil rivojlanishidan manfaatdor bo'lgan davlat o'zining bor imkoniyatlarini ishga solib raqobat muhitini ta'minlashga e'tibor qaratadi.

Ammo shunday sohalarda borki, mazkur sohalarda raqobat muhitini shakllantirish mumkin emasligi qonunchilikda belgilangan bo'ladi. Hat-

toki, bu sohalarda yuqori samaradorlikka erishish uchun raqobatning mavjud bo'lmashligi zarurati ifodalanadi. Bunday sohalarda tabiiy monopoliya sohalari deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan 815-I-sonli "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi Qonunida tabiiy monopoliyalar bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni bevosita tartibga solinadi. Milliy qonunchilik tabiiy monopoliya subyektlarining faoliyati qaysi sohalarda davlat tomonidan tartibga solinishini belgilab bergan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- neft, neft mahsulotlari va gazni quvur orqali transportirovka qilish;
- elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish hamda transportirovka qilish;
- temir yo'llar infratuzilmasidan foydalanish hisobga olingan holda temir yo'llarda tashish;
- umumiy erkin foydalaniladigan pochta aloqasi xizmatlari;
- suv quvurlari va kanalizatsiya xizmati;
- aeronavigatsiyalar, portlar va aeroportlar xizmatlari.

Bunday sohalarda raqobatning mavjudligi o'zini oqlamaydi deb hisoblanadi, shuning uchun

bu sohalar da monopoliyalarning bor bo'lishi maqsadga muvofiqligi nazarda tutiladi.

Muqobil raqobatchilarning bu shakldagi mavjud bo'la olmaslik xususiyatidan kelib chiqib bunday sohalar "tabiiy monopoliya" sohaları deyiladi [3].

Tabiiy monopoliya tushunchasining kelib chiqishi asosida monopoliya tushunchasi yotadi. Umuman olganda, tabiiy monopoliya bu monopoliyaning bir ko'rinishi. Farqi shundaki, tabiiy monopoliyani insonlar "tabiiy" deb qabul qilishga o'rganishgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin tabiiy monopoliya tushunchasiga zamonaviy yondashuv shakllandi, bu davrda "tabiiy monopoliya" tushunchasi, birinchi navbatda, boshqa mahsulotlar o'rnini bosa olmaydigan zarur mahsulot (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi texnologik, infratuzilma monopoliyasi sifatida tushunilgan [4].

Ya'ni, tabiiy monopoliyalar faoliyatiga davlat aralashuvining ilmiy asosi sifatida "davlat tomonidan tartibga solish nazariyasi" yaratilgan va "ijtimoiy farovonlik nazariyasi" doirasida monopoliyaning yuqori narxlarini tartibga solish va iste'molchilar ortiqcha daromadlarini oshirishga qaratilgan tabiiy monopoliyalarni tartibga solish mexanizmlari ishlab chiqilgan [5].

Monopoliya va tabiiy monopoliya tushunchalari garchand shakliiy jihatdan o'xshab ketse-da, biroz ayriicha mazmunga ega.

Monopoliya bu (yun. mono – tanho, poleo – sotaman) – iqtisodiyotning bir sohasida tanho hukmronlik; bozorni tashkil etish shakli. Bunday bozorlarda yagona sotuvchi o'z tovari bilan faoliyat ko'rsatadi, boshqa tarmoqlarda bunday tovarning o'rinbosari bo'lmaydi [6].

Monopoliya va monopol korxonalarning mavjudligi ular mavjud bo'lgan tarmoqlarda raqobatning mutlaqo yo'qligi yoki raqobatni shakllantirish uchun kuchli to'sqinliklar tufayli boshqa raqobatlashuvchilarning mavjud bo'la olmasligiga olib keladi. Monopol subyektlarning bozorda "erkin" ravishda harakatlanishi ijobiy holat hisoblanmaydi.

Monopol korxonalar iste'molchilarning tanlov imkoniyatlarini qat'iy inkor etgan holda o'z xohishlariga ko'ra "o'yin qoidalari"ni belgilaydilar. Tabiiyki, eng birinchi navbatda narx jihatidan, qolaversa, sifat jihatidan iste'molchi monopol korxonaga qaram bo'lib qoladi.

Respublikamizdagi ayrim sohalar bo'yicha yuqoridagi kabi ko'plab muammolarni sanash mumkin, ammo muammoni uzini sanab o'tish emas, balki uni keltirib chiqarayotgan sabablarni aniqlash, uni bartaraf etish yo'llarini qidirish, muammolarni yechish uchun samarali mexanizmlarni ishlab chiqish, muammolarga amaliy yechim bo'la oladigan takliflarni berish – ushbu sohalar ni tadqiq etishdan ko'zlangan asosiy maqsaddir [7].

Davlat va jamiyat monopol korxonalarning mavjud bo'lmasligi tarafdori, davlat tomonidan monopoliyalarning vujudga kelmasligi va raqobat muhitining hukm surishi uchun qonuniy mexanizmlar asosida kurash olib boriladi. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi faoliyat yuritib kelmoqda. Bir so'z bilan aytganda, davlat monopoliyalarning mavjud bo'lmasligi tarafdori bo'ladi.

Qonunchilikka muvofiq, tabiiy monopoliya – tovar bozorining holati bo'lib, unda texnologik xususiyatlar tufayli muayyan tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlariga bo'lgan talabni qondirishning raqobatli sharoitlarini yaratish mumkin emas yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas.

Oddiyoq qilib aytganda, tabiiy monopoliya subyekti sifatida tan olinishi uchun quyidagi ikkita talabga javob berish kerak:

1) texnologik xususiyatlar tufayli sohada raqobat muhitini yaratishning iloji yo'q;

2) sohada bitta xo'jalik subyektidan ko'p faoliyat olib borilishi iqtisodiy jihatdan samarasiz [8].

Tabiiy monopoliyalar faoliyati davlat tomonidan tartibga solinadi, nazorat qilinadi va ular mavjud bo'ladigan tarmoqlar davlat tomonidan belgilab beriladi. Tabiiy monopoliya subyektlari kim bo'lishini davlatning o'zi maqsadli ravishda belgilaydi, ularni o'zi "yaratadi".

Davlat tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatida muammolar yuzaga kelganda bevosita ko'maklashadi, ularga "homiylk" qiladi. Chunki ularning boshqa raqobatchisi yo'q, tabiiy monopoliya subyektlari bajaradigan vazifani uddalay oladigan boshqa subyektlar, masalan, xususiy sektorda mavjud emas deb hisoblaniladi. Chunki davlat xususiy sektorda tabiiy monopoliya subyektlari bajaradigan funksiyalarni boshqa subyektlar bajarishining texnologik imkoni yo'q deb hisoblaydi yoxud boshqa raqobatchining mavjud bo'lishini foydasiz va o'zini oqlamaydi.

Demak, monopoliyaga qarshi barcha imkoniyatlarni ishga solib kurashadigan davlat tabiiy monopoliya subyektlarini o'zi vujudga keltiradi. Monopoliyaga nisbatan davlatning munosabati murosasiz, tabiiy monopoliyaga esa o'zi ko'mak ko'rsatadi, uning faoliyati uchun shart-sharoit yaratib beradi.

Odatda, tabiiy so'zi tabiatdan kelib chiqqan narsalarga ishlatiladi. Masalan, tabiiy yorug'lik, tabiiy resurslar, tabiiy ma'danlar, tabiiy sharoit kabilar. Lekin qanday qilib bu so'z monopoliyaga nisbatan qo'llaniladigan bo'lgan. O'zi monopoliyaning "tabiiy" deb qabul qilish qanday ro'y bergan?

Sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan mamlakatlarda barcha "tabiiy monopoliya" sohalari "meros" qilib olingan [9]. Sobiq Ittifoqda nafaqat tabiiy monopoliyalar, balki boshqa tarmoqlardagi korxonalar ham davlatniki bo'lganligini hisobga olganda, postsovet mamlakatda yashayotgan odamlarda, bu tarmoqlarning keyinchalik ham tabiiy monopoliya deb qabul qilinib kelinganligini tushunish mumkin. Qonunchilik ham barcha MDH mamlakatlarida deyarli analogik ko'rinishda ekanligi ham buni tasdiqlab beradi. Albatta, qonunchilik, mamlakatda yashayotgan insonlar dunyoqarashining in'ikosidir.

Tabiiy monopoliya tushunchasining paydo bo'lish bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkin: monopoliya tushunchasining paydo bo'lishi, monopoliyaning salbiy oqibatlarining aniqlanishi, monopoliyaning ayrim ko'rinishlarini bekor qila olmaslik natijasida ularni davlat nazorati ostida ushlab turish sharti asosida "tabiiy monopoliya"larga aylantirilishi [10].

P.F. Kononkovning mazkur fikri ham yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Monopoliyalar jamiyat tomonidan e'tirozlarga uchray boshlagach, huquqlari kamsitilgan raqobatchilar va iste'molchilarning noroziliklari oshib borgach, davlat yoki ayrim shaxslar guruhi muayyan sohalarni, o'z nazoratida, ushlab turish uchun muayyan monopolistik tarmoqlarni "tabiiy monopoliyalar"ga aylantirgan. Bu jarayon davlatning o'zi tashkil etgan korxonalari yordamida yoki davlatdan berilgan litsenziyani sotib olgan biznes vakillari orqali amalga oshirilgan. Tabiiyki, bir sohada mutlaq yakkahokimlik asosida tadbirkorlikni amalga oshirish uchun litsenziya olish jarayonida korrupsion holatlar ham tez-tez uchrab turgan.

Tabiiy monopoliyaning hozirgi mohiyatiga yaqin keluvchi tushunchalar ilk bor XIX asrda o'rtalarida paydo bo'la boshlagan. Dj.Mill sun'iy monopoliyalar haqida yozar ekan, ularning bevosita davlat tomonidan tashkil etilishi, qonunchilik hujjatlari asosida ularning iqtisodiy agent sifatidagi maqomining qat'iy belgilanishini ta'kidlab o'tgan. Aslida, Dj.Millning ushbu ta'rifini hozirgi tabiiy monopoliya tushunchasining mohiyati uchun asos desa bo'ladi.

Garchand Dj.Mill sun'iy va tabiiy monopoliyalarni farqlashga harakat qilgan bo'lsa-da, buning uddasidan chiqa olmagan. Dj.Mill tabiiy monopoliyalar deganda ularning paydo bo'lishini asosiy omil deb hisoblagan va bu orqali davlat tomonidan tashkil etiladigan sun'iy monopoliyalardan farqlashga harakat qilgan. Tabiiy monopoliya deb, Dj. Mill tabiiy kelib chiqishni asos qilib olgan.

Shunga o'xshash fikr 1838-yilda, Dj. Milldan o'n yil oldin A. Kurno tomonidan ham bildirilgan. A. Kurno tabiiy suv manbasi mulkdori aholining suv bilan ta'minoti ustidan nazoratni o'rnata olganligi, suvning narxini mustaqil belgilay olganligini tabiiy monopoliya deb nazarda tutgan [11].

Marksistik nazariya ham tabiiy monopoliyani tabiiy resurslarga bog'laydi. K. Marksning fikricha, tabiiy monopoliya u yoki bu ishlab chiqaruvchining tabiiy manbaga monopol egalik qilishi natijasida vujudga keladi [12].

Bizningcha, tabiiy monopoliyaning hozirgi zamondagi mohiyatiga Dj. Millning sun'iy monopoliyalar haqidagi fikri ko'proq mos keladi.

Tabiiy monopoliyalarga nisbatan bo'lgan nuqtayi nazar Ikkinchi jahon urushidan so'ng o'zgargan. Bu paytda turli infratizimlar keskin rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Elektr ta'minoti, suv ta'minoti, telefon tarmoqlari, temiryo'l tashuvlari jadallik bilan rivojlangan. Bu tarmoqlar katta xarajatlarni talab etardi.

Agarda bir subyekt temiryo'l tarmoqlarini o'rnatsa (qursa, yangi yo'llarni barpo etsa, tegishli qurilmalar va vositalarni shakllantirsa), katta xarajatlarni amalga oshiradi. Yana bir boshqa subyekt ham huddi shu kabi harakatlarni takrorlasa, tabiiyki muayyan darajada xarajat qiladi. Bu holda, birinchidan har qaysi subyekt qilgan ishi uchun ketgan xarajatlarni o'zi taqdim etgan tovar yoki xizmat narxiga qo'shgan. Natijada, narx oshgan. Ikkinchidan, kommunikatsion tizimlarni o'rnatish aholiga muayyan noqulayliklar yuzaga

keltirgan (masalan, yerlarning qazib tashlanishi, yo'llarning vaqtinchalik berkitilishi). Tabiiy monopoliya tarafdorlari bu kabi holatni keraksiz takrorlashlar deb atab, tabiiy monopoliyalar aholini noqulayliklardan xalos etish uchun tashkil etilganligiga ishonitirishgan.

Go'yoki jamiyatda boshqa bir subyekt ortiqcha sarf-xarajat qilmasligi, odamlarga noqulaylik tug'dirmasligi (masalan, suv ta'minoti uchun bir nechta raqobatchi bo'lsa, har bir subyekt har safar o'ziga kerak bo'lganda alohida quvurlar o'tkazishda mahalliy yo'llar kavlab tashlansa, aholiga noqulayliklar tug'diradi) uchun zarur bo'lgan institut sifatida "tabiiy monopoliya" tushunchasi jamiyat ongiga zaruriy institut sifatida singdirildi.

Bunday g'oyalarga tayangan holda, F.M. Shere agarda ikki yoki undan ko'p korxonadan ko'ra bir korxona butun tarmoqdagi talabni maqbul narxda qanoatlantirishi samaraliroq bo'lgan vaziyatda tabiiy monopoliyalar yuzaga kelishini ta'kidlaydi [13].

Shu tariqa tabiiy monopoliya konsepsiyasi texnologik xususiyatlar va katta xarajatlarni sabab qilgan holda "de-fakto" monopol tarmoqlarni davlat tomonidan himoyalangan subyektlarga aylantirib bergan.

XX asr turli inqilobiy texnologik yutuqlarga boy bo'ldi. Qo'l mehnatining kamayib, avtomatlash-tirishning ortishi, konveyer usulining paydo bo'lishi, ulkan hajmlarda ishlab chiqarishning ortishi, temiryo'llar, elektr ta'minoti qamrovining kengayishi biznesning mavqeyini oshirdi. Asta-sekinlik bilan, tabiiy monopoliyalarning "tabiiyligiga" shubha paydo bo'la boshladi. Sababi, bozordagi boshqa subyektlarda ham manfaatli bo'lgan tarmoqlarda faoliyat yuritish istagi paydo bo'la boshladi. Chunki texnologik imkoniyatlar xarajatlarni qisqartirgan holda raqobatli sharoitlarni yaratishga imkon berdi.

Tabiiy monopoliya korxonalarining paydo bo'lish tarixini o'rgangan DiLorenso o'z tadqiqotida "tabiiy monopoliya – iqtisodiy fiksiya" ekanligini bildirib o'tgan. Ayniqsa, kommunal sohalarga e'tibor berar ekan, AQShda hattoki XIX asrning oxiridayoq elektr ta'minoti bo'yicha bir nechta kompaniyalar bo'lganligini asoslab o'tadi.

DiLorensoning fikricha, muttasil raqobatlashib kelgan korxonalar davlatning qo'llab-quvvatlashi orqali o'zlarining monopol statuslariga erishib, tabiiy monopoliya korxonalariga aylanib olganlar.

Keyinchalik, iqtisodchilar yordamida o'zlarining aslida monopol maqomlarini tabiiy monopoliya sifatida qonuniylashtirib olganlar [14].

DiLorensoning nuqtayi nazaricha, XXI asrda AQSh iqtisodiyotida tabiiy monopoliyalarga mutlaqo o'rin yo'q.

Bizningcha esa, garchand iqtisodiy fiksiya ekanligini e'tirof etsak-da, bu institut hozircha mamlakatimiz iqtisodiyotida yashab turishi kerak. Balki qachondir bosqichma-bosqich islohotlar natijasida tabiiy monopoliya sohalari to'liq xususiy lashishi mumkindir. Hozir esa uning mavjud bo'lish chegaralarini qat'iy qayta ko'rib chiqish lozim. Chunki, qonunchiligimizda nazarda tutilgan, texnologik xususiyatlar va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmaslik mezonlari hozirgi kunda yengib o'tish yoki chegaralanish imkoniga ega. Ayniqsa, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emaslik mezoni nihoyatda bahsli.

Birinchidan, qancha ko'p ishlab chiqarilsa, mahsulot narxining shuncha past bo'lishi hozirgi kunda yetarlicha bahsli. Miqyos jihatidan samaradorlikka erishish hozirgi paytda har doim ham o'zini oqlayvermaydi. Faqat bir subyekt ko'p mahsulot chiqarsa, mahsuloti, albatta, hamyonbop bo'ladi deb hech kim kafolat bera olmaydi. Chunki zamonaviy texnologiyalar kam xarajat qilib, ko'p miqdordagi mahsulotni ishlab chiqarish imkonini beradi.

Ikkinchidan, raqobatning paydo bo'lishi tufayli raqobatchi subyektlar iste'molchini o'zlariga jalb etish uchun narx tushirish siyosatini olib boradilar, shu bilan birgalikda, sifatni ham oshirishga intiladilar. Bizningcha, tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonunchilikdan "iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas" mezonini olib tashlash payti keldi.

Shuningdek, texnologik xususiyatlarga ko'ra saqlanib qolayotgan tabiiy monopoliya subyektlari tarmoqlarini ham qayta ko'rib chiqish lozim. Bu holat tabiiy monopoliya tarmoqlariga investorlarning faol kirib kelishiga, tarmoqni rivojlantirish orqali foyda olishni istaydigan tadbirkorlarning raqobatlashuvi oqibatida narxlarning arzonlashuvi va sifatning oshishiga olib keladi.

Davlatning muttasil ravishda tabiiy monopoliyalarni qo'llab-quvvatlashi holatlaridan voz kechish payti keldi. Mazkur sohadagi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zlarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatlarida kelib chiqadigan

holatlar uchun barcha mas'uliyatni o'z zimmalariga olishlari lozim.

Shuni qayd etish lozimki, davlatning bunday holatlarda "o't o'chiruvchi" sifatidagi roldan voz kechish payti keldi [15].

Bizningcha, tabiiy monopoliyalarning mutlaqo tabiiylik xususiyati yo'q. Bu iqtisodchilar tomonidan monopol harakatlarni niqoblash uchun o'ylab topilgan institut. Tabiiy monopoliya aslida fiksiya. Uning mavjud bo'lishi uchun hech qanday keskin asos yo'q. Texnika taraqqiyoti texnologik to'siqlarni allaqachon yengib o'tgan. Iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqlik emaslik mezoni ham o'zini oqlamaydi.

Shuningdek, ayni paytda tabiiy monopoliya tarmoqlari hisoblangan ko'plab sohalarni demopolizatsiya qilish imkoniyati mavjud hamda bunga katta ehtiyoj bor. Bunda texnogen xususiyatlar hamda davlat va jamoat xavfsizligiga doir talablarning bajarilishini nazorat qilish zarur bo'lgan qismlarda tabiiy monopoliya saqlab qolinishi, qolgan qismlar esa liberalizatsiya qilinishi maqsadga muvofiq hamda davlatning nazoratchilik funksiyasining o'zi yetarli deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasida monopoliyalar mavjud bo'lgan sohalarda bosqichma-bosqich ravishda xususiylashtirish va davlat-xususiy sherikligi institutini joriy etish davr talabiga aylanmoqda. Davlat monopoliyalari, ayniqsa, tabiiy monopoliyalar hisoblangan sohalarni isloh etish va zamonaviylashtirish uchun investitsiyalar jalb etishning murakkab, qolaversa, ko'plab monopol sohalarning zarar ko'rib faoliyat yuritayotganligi, iste'molchilar tomonidan e'tirozlar ko'pligiga qaramasdan muammolarni ijobiy hal etishdagi moliyaviy, infratuzilmaviy, tashkiliy qiyinchiliklar mazkur sohalarga xususiy sektorni jalb etish orqali bartaraf etilishi mumkin.

Ushbu sohalarga xususiy sektorning jalb etilishi quyidagicha afzalliklarni keltirib chiqaradi:

birinchidan, sohalarga investitsiyalar jalb etilishidan xususiy sektorning manfaatdorligi oshadi;

ikkinchidan, sohalarni davlat budjeti hisobidan moliyalashtirish miqyosi kamayadi;

uchinchidan, raqobat muhiti tufayli xizmatlar va tovarlarning sifati, taqdim etish tezligi oshadi; to'rtinchidan, yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Shu bilan birgalikda, mazkur islohotlarni amalga oshirish jarayonida quyidagi murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin:

birinchidan, xususiy sektor miqyos bo'yicha samaradorlikdan foydalanish darajasi pasayishi tufayli tovarlar va xizmatlarning narxlari oshishi mumkin;

ikkinchidan, sohalarda faoliyat yuritadigan professional kadrlarga ehtiyoj oshish ehtimoli katta. Buning uchun, maxsus tezashtirilgan malaka oshirish va qayta tayyorlov kurslarini tashkil etishni nazarda tutish maqsadga muvofiq;

uchinchidan, tabiiy monopoliya sohasida qonunchilikni tubdan qayta ko'rib chiqish ehtiyoji yuzaga keladi. Buning uchun har bir sohani mukammal tushunadigan yuridik xizmat xodimlariga ham ehtiyoj oshadi.

Bu borada yuridik ta'limni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega, zero rivojlangan davlatlarda monopoliyaga qarshi kurash va moliya bozorlarini tartibga solish kabi sohalarda fanlararo tadqiqotlar allaqachon joriy etilgan [16].

Bundan tashqari, quyidagi masalalarga ahamiyat berilishi maqsadga muvofiq:

birinchidan, tabiiy monopoliyalar borasidagi qonunchilikni tanqidiy ko'rib chiqish zarurati mavjud. "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida" gi Qonunning 3-moddasida tabiiy monopoliyalarga ta'rifi tushunchasida "iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emaslik" mezoni nihoyatda bahsli. Mazkur mezon miqyos jihatidan samaradorlik g'oyasidan kelib chiqqan. Ya'ni, tovar qancha ko'p ishlab chiqarilsa, shuncha arzon bo'ladi deb hisoblanilgan. Rivojlangan texnologiyalar sharoitida bitta subyektning faqat bir o'zi tovar ishlab chiqargan. Ammo, hozirgi zamonaviy texnologiyalar kam xarajat qilib, ko'p miqdordagi mahsulotni ishlab chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, raqobatning paydo bo'lishi tufayli raqobatchi subyektlar iste'molchini o'zlariga jalb etish uchun narx tushirish siyosatini olib boradilar, shu bilan birgalikda, sifatni ham oshirishga intiladilar. Bizningcha, tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonunchilikdan "iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas" mezonini olib tashlash payti keldi;

ikkinchidan, pochta xizmatlarini amalga oshirish sohasida bozorda faoliyat yurituvchi bir qator tuzilmalar faoliyat yuritayotgan bo'lsa-da, umumiy erkin foydalaniladigan pochta aloqasi xizmatlari hamon tabiiy monopoliya sohasida saqlanib qolinmoqda. Fikrimizcha, umumiy erkin foydalaniladigan pochta aloqasi xizmatlarini

tabiiy monopoliya sohasi sifatida qonunchilikda saqlanib turishi maqsadga muvofiq emas;

uchinchidan, tabiiy monopoliya sohalari, xususan, har bir tarmoq bo'yicha qonunchilikni tizimlashtirish masalasiga ham e'tibor qaratish lozim;

to'rtinchidan, islohotlarning markazida monopolist ishtirokchini qayta shakllantirish emas, balki tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini birinchi navbatda iste'molchilarning manfaatlari-dan kelib chiqib maqbullashtirish masalasi turishi [17] lozimdir.

Turli normativ-huquqiy hujjatlarda tarqoq ravishda mustahkamlangan qoidalar tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yetarli darajada yordam bermaydi [19].

Shuningdek, tabiiy monopoliya sohaslarida raqobatni shakllantirishda tabiiy monopoliya sohaslarini shartli ravishda quyidagicha uch guruhga bo'lish mumkin deb hisoblaymiz:

1) bozorda amalda (de-facto) raqobat elementlari kuzatilayotgan tabiiy monopoliya sohalari (umumiy erkin foydalaniladigan pochta aloqasi xizmatlari);

2) xususiy ishtirok elementlari shakllantirilayotgan tabiiy monopoliya sohalari (tijorat aviatsiyasi xizmatlari [20]: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining fuqaro aviatsiyasini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5584-son Farmoni), elektr energiyasini sotish [21];

3) Differensiyalashgan bozorlar yaratish imkonini bo'lgan tabiiy monopoliya sohalari.

Tabiiy monopoliya sohaslariga milliy qonunchilik keng qamrovni egallash imkoniyatini taqdim etgan. Bu holat, bir tomondan, sohaga investitsiyalarning jalb etilishida murakkabliklarni yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan monopolist korxonalarning boqimandalik kayfiyatini yuzaga keltiradi. Tabiiy monopoliyalar iqtisodiyotimizning ko'richaklari kabi saqlanib qolar ekan mazkur sohalarni zamon talablariga moslab transformatsiya qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelaveradi. Shu jihatdan tabiiy monopoliya sohaslarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda bu sohalarda bosqichma-bosqich ravishda raqobat muhitini shakllantirish lozim.

REFERENCES

1. Tadjibayeva M. Discrediting as one of the signs of unfair competition. Review of law sciences, 2020, no. 3.
2. Umarov B. Rol detsentralizatsii v konsepsiyax sovremennogo upravleniya [The role of decentralization in the concepts of modern management]. Review of law sciences, 2020, vol. 1, Special issue.
3. Grigoreva O.A. Pravovoe regulirovanie yestestvennûx monopoliy. Dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata yuridicheskix nauk [Legal regulation of natural monopolies. Dissertation for the degree of candidate of legal sciences]. Ekaterinburg, 2003.
4. Khusainova R. Monopoly, competition and entry in the electricity market in the Republic of Uzbekistan. Evrazijskiy Sojuz Uchenyh – Eurasian Union of Scientists, 2020, no. 6-4 (75).
5. Xusainova R.A. Energetika sohasida tabiiy monopoliyani isloh qilish va raqobatni rivojlantirish bosqichlari [Stages of reforming the natural monopoly in the energy sector and the development of competition]. O'zbekiston Milliy axborot agentligi – O'za Ilm-fan bo'limi (elektron jurnal) – National News Agency of Uzbekistan - UzA Department of Science (electronic journal), 2020, May, pp. 1-16.
6. Qomus.info. Letter M. Monopoly. Available at: <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/monopoliya-uz/>.
7. Achilova L.I., Xasanov N.M. O'zbekiston Respublikasi yengil avtomobil bozorini monopoliyaga qarshi tartibga solish muammolari [Problems of antitrust regulation of the passenger car market of the Republic of Uzbekistan]. Scientific progress, 2021, no. 2 (1), pp. 434-440. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekiston-respublikasi-engil-avtomobil-bozorini-monopoliyaga-arshi-tartibga-solish-muammolari/>.
8. Radjapov X. Tabiiy monopoliyalar sohasida raqobatni shakllantirishning huquqiy asoslari [Legal basis for the formation of competition in the field of natural monopolies]. Yuridik fanlar axborotnomasi – Vestnik yuridicheskix nauk – Review of law sciences, 2020, no. 3, p. 112.
9. Ibragimova A. Tabiiy monopoliya nima? [What is a natural monopoly?]. Huquq va burch – Law and duty, 2021, no. 9, p. 39.

10. Kononkov P.F. Gosudarstvennoe regulirovanie yestestvennyx monoliy. Dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskikh nauk [State regulation of natural monolia. Thesis for the degree of candidate of economic sciences]. Moscow, 2007, p. 11.
11. Kurno A. Issledovanie matematicheskikh principov teorii bogatstva [Exploring the Mathematical Principles of Wealth Theory]. 1838.
12. Marks K. Kapital. K. Marks, F. Engels. Polnoe sobranie sochineniy [Capital. K. Marx, F. Engels. Full composition of writings]. Tashkent, 1925, p. 41.
13. Schere F.M. Industrial market structure and economic performance. Chicago, Rand Me. Nally College Publishing Company, 1980, p. 24.
14. DiLorenzo T. Mif o estestvennoy monopolii. Perevod s angliyskogo B. Livina [The myth of natural monopoly. Translation from English by V. Livin]. Sovremennaya konkurenciya – Modern competition, 2009, no. 5 (17), pp. 100–114.
15. Djumanov A. Gosudarstvennoe regulirovanie cen na lekarstva v Uzbekistane i Kazahstane [State regulation of drug prices in Uzbekistan and Kazakhstan]. Review of law sciences, 2020, vol. 3, Special issue, p. 54. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennoe-regulirovanie-tsen-na-lekarstva-v-uzbekistane-i-kazahstane/>.
16. Oqyulov O., Tursunov A. Creating Appropriate Legal Environment for Technology Transfer by Foreign Investors in Uzbekistan. Solid State Technology, 2020, vol. 63, no. 5. Available at: <http://solidstatetechnology.us/index.php/JSST/article/view/9257/>.
17. Lisicyn-Svetlanov A.G. Estestvennye monopolii v energeticheskom sektore ekonomiki: pravovye problemy reformirovaniya [Natural monopolies in the energy sector of the economy: legal problems of reform]. Pravovoy energeticheskij forum – Legal Energy Forum, 2020, no. 4, p. 7.
18. Niyazova N. Diskussiya i debaty kak sredstva sovershenstvovaniya kultury rechi u studentov yuridicheskikh fakultetov [Discussion and debate as a means of improving the culture of speech among students of law faculties]. Review of law sciences, 2020, vol. 3, Special issue.
19. Ibragimova A.R. Sistematizatsiya zakonodatelstva vneshney trgovli – zalog uspehnogo osushhestvleniya biznes-deyatelnosti [Systematization of foreign trade legislation is the key to successful business activities]. Molodoj uchenyj – Young scientist, 2019, no. 20, pp. 312–315.
20. xs.uz. Veb-nashri [xs.uz. Web edition. People's Word and Narodnoye Slovo newspapers]. Available at: <https://xs.uz/uz/post/aeroportlar-davlat-khususij-sheriklik-asosidarekonstruktsiya-qilinadi/>.
21. Energetika vazirligi: sohani isloh qilish va uning salohiyatini oshirish ishlari qanday ketmoqda? [Ministry of Energy: How is the sector reform and capacity building going?]. Available at: <https://minenergy.uz/uz/news/view/1298/>.

UDC: 347(042)(575.1)
ORCID: 0000-0003-3899-8841

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATLAR FAOLIYATINI FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Shukrullayev Siyovush Ulug'bek o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va
iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrası o'qituvchisi,
e-mail: siyovush.law@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada amaldagi qonunchilikda MCHJ tushunchasining ta'rifi, bu xususda amaliyotda mavjud muammolar va takliflar, shuningdek, uni tashkil etgan ishtirokchilarining huquqiy maqomi va javobgarlik doirasi masalalari, bu boradagi olimlarning turli xil yondashuvlari va MCHJ faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bilan bog'liq masalalar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida MCHJning fuqarolik-huquqiy maqomining ilmiy-nazariy muammolari, MCHJ tushunchasi va mohiyati, uning fuqarolik huquqi subyektlari, yuridik shaxslar va xo'jalik jamiyatlar tizimidagi o'rni va ahamiyati, MCHJning vujudga kelishi va qayta tashkil etilishining huquqiy asoslari va undagi muammolar tadqiq etilgan. Shuningdek, MCHJning faoliyati, MCHJ ishtirokchilari huquqiy holati, MCHJning mol-mulki va mulkiy huquqlari, MCHJning fuqarolik-huquqiy javobgarligi, MCHJ ta'sis hujjatlari va ularni rasmiylashtirilishi, MCHJning huquq va muomala layoqatining o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Bundan tashqari, xorijiy aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlari bilan o'zaro nisbati o'rganilgan. Shuningdek, tadqiqotning yangiligi keng doiradagi muammolarning o'rganilganligi hamda tadqiqot ishida MCHJ faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan va muhim amaliy ahamiyat kasb etuvchi takliflar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: tashkiliy-huquqiy shakl, MCHJ, ta'sis hujjati, ustav fondi, hissalar, muassis, boshqaruv organlari, fuqarolik huquqlariga ega bo'lishi va fuqarolik majburiyatlarini zimmasiga olish.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ОБЩЕСТВ С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ

Шукруллаев Сиёвuş Улуғбек угли,
преподаватель кафедры "Гражданское процессуальное
и экономическое процессуальное право"
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются понятие и сущность ООО, его субъекты в соответствии с действующим законодательством, актуальные проблемы и предложения по данному вопросу, а также вопросы правового статуса и сферы ответственности учредителей ООО, различные подходы ученых в этой области и вопросы, связанные с совершенствованием гражданско-правового регулирования деятельности ООО, научно-теоретические проблемы гражданско-правового статуса ООО на основе законодательства Республики Узбекистан. Исследованы место и значение ООО в системе юридических лиц и хозяйственных обществ, правовые основы их возникновения и реорганизации, проблемы, стоящие перед ним. Также анализируется деятельность, правовой статус участников, имущество и имущественные права, гражданско-правовая ответственность, учредительные документы и их оформление, специфика правоспособности ООО. Кроме того, изучены взаимоотношения с зарубежными акционерными обществами, обществами с ограниченной ответственностью. Новизной исследования также является изучение широкого круга проблем, а также в исследовательской работе представлены научно обоснованные и имеющие важное практическое значение предложения по совершенствованию законодательства в области совершенствования гражданско-правового регулирования деятельности ООО.

Ключевые слова: организационно-правовая форма, ООО, учредительный документ, уставный фонд, вклады, учредитель, органы управления, гражданско-правовые права и гражданско-правовые обязанности.

IMPROVING THE CIVIL-LEGAL REGULATION OF LIMITED LIABILITY COMPANIES

Shukrullaev Siyovush Ulugbek ugli,

Lecturer at the Department of Civil Procedural and Economic Procedural Law of
Tashkent State University of Law

Abstract. The concept of LLC in the current legislation, in this regard, the existing problems and proposals, as well as issues of legal status and scope of responsibility of its participants, different approaches of scholars and issues related to improving the civil law of the LLC, scientific and theoretical problems of the civil-legal status of the LLC in the legislation of the Republic of Uzbekistan, the concept and essence of the LLC, its role and importance in the system of civil law entities, legal entities and business societies, the legal basis for the formation and reorganization of the LLC and its problems are enlightened in this article. Moreover, the activities of the LLC, the legal status of the participants of the LLC, property and property rights of the LLC, civil liability of the LLC, the constituent documents of the LLC and their registration, the specifics of the legal capacity of the LLC are also investigated. In addition, the ratio between foreign joint-stock companies and limited liability companies is studied. The novelty of the investigation is determined by the study of a wide range of problems, as well as scientifically based and important practical recommendations for improving the legislation in the field of civil regulation of the LLC.

Keywords: organizational and legal form, LLC, constituent document, charter funds, shares, founder, administrative bodies, possession of civil rights and assumption of civil obligations.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F-5464-son farmoyishi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasining I bo'lim 2-bandida Fuqarolik kodeksi va boshqa fuqarolik qonun hujjatlaridagi atama va tushunchalarning huquqiy ma'nolarini ularni aniq ta'riflash va bir xilda qo'llash orqali takomillashtirish belgilangan. Shunga ko'ra, yuridik shaxslarning tadbirkorlik faoliyatiga ta'rif berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Fikrimizcha, tadbirkorlik faoliyati bu mustaqil va tashkillashtirilgan shaklda, shaxsning tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida foyda (daromad) olish maqsadida qonuniy va muntazam ravishda amalga oshiriladigan faoliyatni tushunishimiz mumkin.

Ta'kidlash lozimki, "Yuridik shaxs" atamasi turli xildagi tashkilotlarning umumiy shartli nomi sifatida e'tirof etiladi va ular fuqarolik huquqining subyekti sifatida ana shu nom ostida huquqiy maqomga ega bo'ladi. Odatda "Yuridik shaxs" nomi shu nomdagi subyektlarning tashkil topishi va faoliyatining har bir holati muayyan hujjatlar orqali yuridik jihatdan rasmiylashtirilib qo'yilishi shartligidan kelib chiqadi. Shu sababli fuqarolik qonunchiligida belgilangan yuridik shaxslarning alohida tashkiliy-huquqiy shakllari yuridik shaxs-

larga xos bo'lgan umumiy belgilar va mezonlarga mos bo'lishi lozim. Aynan mazkur belgilar tegishli tashkiliy-huquqiy shakldagi tashkilotlarni yuridik shaxs sifatida tan olinishi uchun talab etiladigan asosiy mezonlar hisoblanadi. Zero, u yoki bu tashkilotda mazkur belgilarning mavjud emasligi, uni yuridik shaxs sifatida e'tirof etilishi va tegishli tartibda davlat ro'yxatidan o'tishini inkor etadi.

Yuridik shaxslarning boshqa tashkiliy-huquqiy shakllaridagi kabi mas'uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ)lar uchun tegishli huquqiy belgilarga ega bo'lish yuridik shaxs sifatida tan olinish uchun asosiy va bosh mezon sifatida e'tirof etiladi. Bu holat O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi 310-II-son Qonuni 5-moddasi oltinchi qismidan ham anglashiladi. Mazkur normada belgilanishicha, jamiyat o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan huquqlarni olishi, majburiyatlarga ega bo'lishi, sud da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

H.R. Rahmonqulovning fikricha, yuridik shaxs tushunchasi qonunning o'zida berilgan (FKning 39-moddasi) belgilari bilan ifodalanadi. Ushbu belgilari quyidagilardan iborat [1]:

1) tashkiliy birlik;

2) o'z mulkiga va alohida mol-mulkka ega bo'lishlik;

3) mustaqil balans va smetaga ega bo'lishlik;

4) o'z majburiyatlari yuzasidan mol-mulki bilan mustaqil javobgar bo'lishlik;

5) o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega va sudda da'vogar va javobgar bo'lishlik.

Mazkur holatlardan kelib chiqib, milliy qonunchilik MCHJni ustav fondi ulushlarga bo'lingan, ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydigan va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladigan bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etiladigan xo'jalik jamiyati ekanligini belgilaydi. FKning 4-bobi qoidalaridan kelib chiqib, MCHJni tijoratchi yuridik shaxsning alohida tashkiliy-huquqiy shakli ekanligini qayd etish mumkin.

Xo'jalik jamiyatlarining xo'jalik shirkatlaridan farqli tarafi shundaki, xo'jalik shirkatida ishtirokchilarning birlashishi hamda ularning shirkat ishlarida faol ishtiroki talab qilinsa, xo'jalik jamiyatlarida esa resurslar, mablag'lar (kapital) jamlanishi oqibatida vujudga keladi va shu nuqtayi nazardan unda ishtirokchilarning xo'jalik jamiyatlarida ishlarida shaxsan qatnashishi talab etilmaydi. Xo'jalik jamiyatlarida ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari bilan bog'liq farqli jihati aynan ularning majburiyatlari bo'yicha javobgarligi doirasi bilan baholanadi. Misol uchun, mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar (FKning 62-moddasi). Ya'ni, ularning tadbirkorlik faoliyatidagi tavakkalchilik darajasi ularning jamiyat ustav fondiga kiritgan hissalarining miqdori bilan belgilanadi.

MCHJning mulkiy asosi jamiyat ishtirokchilarining hissalaridan tashkil topgan ustav fondi (kapitali)dan iborat. Ustav kapitalining miqdoriga qo'yilgan talab mavjud emasligi MCHJning boshqa xo'jalik jamiyatlaridan ustun tomonini ko'rsatadi. Shu sababli ustav kapitalining miqdori ishtirokchilar tomonidan ixtiyoriy qiymatda ustavda belgilanadi. Bunda bitta istisno holat mavjud bo'lib, jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdori litsenziya talablarida belgilanishi mumkin. Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatda javobgar-

ligi doirasi biroz kengroq bo'lib, FKning 63-moddasiga ko'ra, bunday jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha o'z mol-mulkklari bilan qo'shgan hissalar qiymatiga nisbatan hamma uchun bir xil bo'lgan, jamiyatning ta'sis hujjatlari-da belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo'lishi, ishtirokchilardan biri nochor (bankrot) bo'lib qolganida uning jamiyat majburiyatlari bo'yicha javobgarligi, agar jamiyatning ta'sis hujjatlarida javobgarlikni taqsimlashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lmasa, boshqa ishtirokchilar o'rtasida ularning qo'shgan hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanishi belgilangan.

Yuridik adabiyotlarda yuridik shaxsning mazkur tashkiliy-huquqiy shakli nomlanishi borasida ham bir qator mulohazalar bildiriladi [2; 3]. Xususlan, S.I. Sapkoning fikricha, tijorat tashkilotining ushbu tashkiliy-huquqiy shakli nomlanishi "omadsiz" chiqqan. Fikrimizcha, gap ishtirokchi jamiyatning majburiyatlari bo'yicha javob bermasligi sababli mas'uliyat cheklanishi haqida emas, balki o'zlarining kiritgan jamg'armalari miqdorida ziyon ko'rish xavfi zimmasidaligi hamda ushbu jamg'armani yo'qotish mumkinligi haqida ketmoqda. Ushbu holatdan kelib chiqib, xo'jalik jamiyatlarining ushbu tashkiliy-huquqiy shaklidagi "mas'uliyati cheklangan" atamasini ishtirokchilarning ustav kapitaliga kiritgan mablag'larini yo'qotish xavfi nomi bilan atash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shu sababli adabiyotlarda keltirilgan MCHJni "ishtirokchilarning ziyon ko'rish xavfi cheklangan jamiyat" deb nomlash taklifiga qo'shilish mumkin. Zero, MCHJ uni tashkil etgan ishtirokchilarining huquqiy maqomidan alohida mustaqil huquqiy maqomga ega bo'lgan tashkilot hisoblanadi [4].

S.A. Makarovning ta'kidlashicha, "mas'uliyati cheklangan jamiyat" iborasi yuridik shaxs ushbu tashkiliy-huquqiy shaklining o'ziga xos belgilarini ifoda etmaydi, binobarin ishtirokchilar javobgarligining cheklanishi faqatgina MCHJga xos bo'lgan jihat emas, balki xo'jalik jamiyatlarining boshqa turlari va kooperativlar (ishlab chiqarish va matlubot kooperativ) hamda yuridik shaxslar birlashmalari (uyushmalar)ga ham taalluqlidir. MCHJga nisbatan qabul qilingan ushbu nom Rossiyada va boshqa xorijiy mamlakatlarda shakllangan huquqiy an'anadan kelib chiqadi hamda shartli hisoblanadi [5].

E'tirof etish lozimki, bir shaxs tomonidan jamiyat tuzish mumkinligi amaliyoti xorijiy mam-lakatlar qonunchiligida uzoq davrlardan buyon amal qiladi. Masalan, Fransiya ushbu norma 1895-yilda qonunchilikka kiritilgan (Fransiya Grajdanlik kodeksining 1832-moddasi) [6]. "Bir shaxs jamiyati" – tadbirkorning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida tavakkalchiligi-ni cheklashning universal shaklidir. Shu o'rinda qayd etish lozimki, FKning 24-25-moddalariga ko'ra, fuqaro o'z majburiyatlari yuzasidan o'zi-ga qarashli butun mol-mulki bilan javob beradi, qonunga muvofiq undiruvni qaratish mumkin bo'lmagan mol-mulk bundan mustasno. "Bir shaxs jamiyati"ni tuzganda tadbirkor mol-mulkining bir qism yuridik jihatdan jamiyat ustav kapitalini shakllantirish uchun ajratiladi va amalda tadbir-korning mulkiy tavakkalchiligi ham ana shu mulk doirasida cheklanadi. Shu bilan birga, "bir shaxs jamiyatini" tuzish imkonini nazarda tutuvchi dav-latlar qonunchiligi, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi har doim "bir shaxs jamiyati" ko'rinishidagi MCHJ tashkil etishga nis-batan cheklashlar belgilaydi. Jumladan, "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, qonunda ayrim toifadagi jismoniy shaxslarning jamiyatda ishtirok etishi taqiqlanishi yoki cheklanishi mumkin;

4) ishtirokchilari o'ziga nisbatan majburiyat-larga ega bo'lgan yuridik shaxs. Bu esa jamiyat ishtirokchilari jamiyatning mol-mulkiga nisbatan ashyoviy huquqlarga ega emasligini anglatadi. O'z navbatida, jamiyat ishtirokchilar tomonidan jamg'arma va boshqa ulushlar shaklida topshiril-gan, shuningdek jamiyat tomonidan boshqa asos-lar bo'yicha qo'lga kiritilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor hisoblanadi;

5) mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar;

6) tegishli barqaror tuzilmaga ega bo'lgan tashkilot. Jamiyatning yagona va bo'linmasligi shu bilan ta'minlanadiki, jamiyat nomidan ichki va tashqi munosabatlarda harakat qiladigan jamiyat boshqaruv tuzilmalar qonun hujjatlari bilan bel-gilanadi. Boshqaruv organlarining vakolatlarini belgilar ekan qonun uning ichki tashkiliy tuzilmasi

qanday bo'lishini nazarda tutmaydi, ya'ni jamiyat o'zining ichki tuzilmaviy bo'limlarini tashkil etishi mumkin;

7) jamiyat qonun bilan taqiqlanmagan har qan-day faoliyatni, agar bu faoliyat jamiyat ustavining predmeti va maqsadlariga zid kelmasa, amalga oshirish uchun zarur bo'lgan fuqarolik huquqlari ega bo'lishi va fuqarolik majburiyatlarini zimma-siga olishi mumkin.

MCHJ tijorat tashkiloti bo'lib, faoliyatining aso-siy maqsadi foyda ko'rish hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, notijorat tashkilotlardan farqli o'la-roq, tadbirkorlik faoliyatining har qanday turla-rini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan biznes yuritish uchun xizmat qiladigan moddiy faoliyat. Shunday qilib, jamiyatlar uchun "qonun va nizom tomonidan taqiqlanmagan hamma narsaga ruxsat beriladi" tamoyili ustuvor huquqqa ega. Qonunda belgilangan muayyan faoliyat turlari bilan jami-yat faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosida shug'ullanishi mumkin. Bunda MCHJ faoliyatining maqsadi va predmeti jamiyatning ustavida bel-gilangan doiradan chiqmasligi kerak. MCHJning maqsad va predmeti uning ustavida muassis qa-rori yoki ishtirokchilarning umumiy yig'ilish ba-yonnomasi bilan belgilanishi va unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali amalga oshiriladi.

FKning 125-moddasiga ko'ra, MCHJ to-monidan ta'sis hujjatlarida belgilangan faoliyati maqsadlariga zid bo'lgan yoki shug'ullanishga lit-senziasiyasi bo'lmagan holda tuzilgan bitimlar uning muassisi (ishtirokchisi) yoki vakolatli davlat or-ganining da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkinligi belgilangan.

MCHJ davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs sifatida tashkil etilgan deb hisoblanadi. Agar ustavida muddat belgilanmasa, MCHJ cheklanmagan muddatda tuzilgan hisobla-nadi.

Fuqarolik huquqi subyektlaridan faqatgina yuridik shaxslar tashkil etish usuli bilan yaratilishi mumkin, ya'ni tabiiy ravishda vujudga kel-magan holda jismoniy shaxslarning xohish va istaklari asosida yaratiladi. Yuridik shaxsning shu xususiyatidan kelib chiqib uni "sun'iy yaratil-gan subyekt" deb tavsiflashimiz mumkin. Milliy qonunchilikda MCHJ bir yoki bir necha shaxslar tomonidan tashkil etiladigan tashkilot bo'lib, MCHJni ta'sis etgan shaxs yoki shaxslar ayni payt-da uning ishtirokchilari hisoblanadi.

Fuqarolik kodeksi va “Mas’uliyati cheklangan va qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to’g’risida”-gi Qonunda “muassis” va “ishtirokchi” tushunchalari, xususan, qachon “muassis” maqomidan “ishtirokchi” maqomiga o’zgarishi, farqli jihatlari aniq ifodalab berilmagan.

M.M. Serebrennikovning [7] fikricha, “muassis” va “ishtirokchi” atamasini jamiyat davlat ro’yxatidan o’tkazilgan paytdan boshlab huquqiy maqomi bir turdan ikkinchi turga o’zgarishini ta’kidlagan.

O.S. Ribinaning [8] fikricha esa muassisning huquqiy statusi ta’sis shartnomasi asosida belgilanadi.

Fikrimizcha, “muassis” va “ishtirokchi” maqomi o’rtasidagi chegara jamiyat davlat ro’yxatidan o’tgan paytdan boshlab aniqlanadi. Jamiyat davlat ro’yxatidan o’tkazilgungacha bo’lgan muddatda jamiyatni sun’iy yaratuvchi jismoniy shaxsi “muassis” maqomida bo’ladi. “Muassis” bevosita jamiyat tashkil etilguniga qadar bo’lgan muddatdagi faoliyati va harakati uchun boshqa muassislar va uchinchi shaxslar oldida javobgar hisoblanadi. Jamiyat davlat ro’yxatidan o’tkazilgandan keyingina unga ulush kiritgan muassisi “ishtirokchi” maqomini oladi va huquqning yangi bir subyekti sifatida MCHJ yaratiladi. Ishtirokchining maqomi ta’sis hujjatlari va qonun bilan belgilanadi.

“Mas’uliyati cheklangan va qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to’g’risida”gi Qonunining 7–9-moddalarida jamiyat ishtirokchilari va ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari belgilangan.

10-moddasida esa Jamiyatni ta’sis etish tartibi yuzasidan muassislarning huquq va majburiyatlari yoritilgan.

Qonunning 10, 12-moddalariga ko’ra, muassis quyidagi huquqlarga ega:

- ta’sis shartnomasini tuzish;
- ustavni tasdiqlash;
- ijro etuvchi organlarini saylash;
- ustav fondiga pulsiz hissalar qo’shilganda ularning pul bahosini tasdiqlash.

O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 41-moddasiga ko’ra, yuridik shaxs o’zining ta’sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyati maqsadlariga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo’lishi, yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati esa uning ustavi, nizomi yoki qonun hujjatlari bilan belgilanishi ko’rsatilgan, biroq qonun chiqaruvchi yuridik shaxsning huquq layoqati qa-

chondan boshlab vujudga kelishini ochiq qoldirgan, shuningdek, yuridik shaxsning muomala layoqati tushunchasi va uning qachon vujudga kelishi to’g’risida qoida kiritmagan. Bizning fikrimizcha, yuridik shaxs o’z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo’lish va ularni amalga oshirish, o’zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati, ya’ni muomala layoqatisiz fuqarolik huquqining to’laqonli subyekti bo’la olmaydi. Shu sababli qonun chiqaruvchi yuridik shaxsning huquq va muomala layoqatiga kengroq doirada alohida tavsif berishi lozim deb hisoblaymiz. Negaki, yuridik shaxs muomala layoqati mavjud bo’lgandagina fuqarolik huquqlariga ega bo’lishi va ularni amalga oshirishi, o’zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirishi va ularni bajarishi mumkin.

Mazkur holatda qonun chiqaruvchi faqatgina tor ma’noda yuridik shaxs davlat ro’yxatidan o’tkazilgan paytdan boshlab tashkil etilgan deb hisoblanishini aytish orqali uning huquq va muomala layoqatini vujudga kelish vaqtini va o’sha vaqtdan boshlab fuqarolik huquqining subyekti deb e’tirof etilishini nazarda tutgan.

MCHJning ta’sis etish usulini muassislardan sonidan kelib chiqib ikki turga ajratish mumkin: “Mas’uliyati cheklangan va qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to’g’risida”gi Qonunning 10-moddasiga ko’ra, jamiyatning muassislari soni ikki yoki undan ortiq bo’lsa ta’sis shartnomasini tuzish va jamiyat ustavini tasdiqlash orqali, 11-moddasiga ko’ra, jamiyat bir shaxs tomonidan ta’sis etilgan, shu shaxs tasdiqlagan ustav orqali ta’sis etilishi mumkin. Demak, yoqoridagi qoidadan shuni tushunishimiz mumkinki, MCHJ ta’sis shartnomasi va ustav orqali yoki faqat ustavning o’zi orqali ham ta’sis etilishi nazarda tutilgan.

“Mas’uliyati cheklangan va qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to’g’risida”gi Qonunning 12-moddasiga ko’ra, ta’sis shartnomasida jamiyatning ishtirokchilari jamiyatni tashkil etish majburiyatini oladilar va uni tuzish bo’yicha birgalikdagi kelgusidagi faoliyat maqsadlarini belgilaydilar. Ta’sis shartnomasida quyidagilar nazarda tutiladi:

- MCHJ muassislarning tarkibi;
- MCHJ ustav fondining miqdori va har bir muassis ulushining miqdori;
- MCHJ ta’sis etilayotganda uning ustav fondiga hissalarini qo’shish tartibi, miqdori, usullari va muddatlari;

– hissalarini qo'shish bo'yicha majburiyatlarini buzganlik uchun jamiyat muassislarning javobgarligi;

– MCHJning muassislari o'rtasida foyda va zararlarni taqsimlash shartlari va tartibi;

– MCHJ organlarining tarkibi va jamiyat ishtirokchilarining jamiyatdan chiqish tartibi.

Ta'xis shartnomada asosiy urg'u muassislarning huquq va majburiyatlariga qaratiladi.

Mazkur Qonunning 13-moddasiga ko'ra, jamiyat ustavida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

– MCHJning to'liq va qisqartirilgan firma nomi;

– MCHJ faoliyatining predmeti;

– MCHJning pochta manzili to'g'risidagi ma'lumotlar;

– MCHJ organlarining tarkibi va vakolatlari to'g'risidagi, shu jumladan, jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatiga kiruvchi masalalar to'g'risidagi, jamiyat organlari tomonidan qarorlar qabul qilish tartibi to'g'risidagi, shu jumladan, qarorlar bir ovozdan yoki kvalifikatsion ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadigan masalalar to'g'risidagi ma'lumotlar;

– MCHJ ustav fondining miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar;

– MCHJ har bir ishtirokchisi ulushining miqdori va nominal qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar;

– MCHJ ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlari;

– MCHJ ishtirokchisining jamiyatdan chiqish tartibi va uning oqibatlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

– MCHJ ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushning (ulush bir qismining) boshqa shaxsga o'tishi tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar;

– MCHJning hujjatlarini saqlash tartibi hamda jamiyat tomonidan jamiyat ishtirokchilariga va boshqa shaxslarga axborot taqdim etish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar;

– MCHJning vakolatxonalari va filiallari to'g'risidagi ma'lumotlar;

– qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa ma'lumotlar.

MCHJning ustavida asosiy urg'u jamiyatning huquqiy maqomini belgilash, jamiyat faoliyatini tashkil etishga qaratilgan bo'ladi. Biroq, amaliyotda aksariyat tadbirkorlik subyektlari mazkur ikki ta'xis hujjatini, ya'ni ta'xis shartnomasi va ustav mazmunini bir xil mazmunda qilib tuzishadi. Fikrimizcha, ushbu holat yuridik jihatdan noto'g'ri deb hisoblaymiz. Yuqoridagi tushunmovchilikni

bartaraf etish maqsadida "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasiga "ta'xis shartnomasi muassislarning huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi ta'xis hujjati hisoblanadi", 13-moddasiga esa "jamiyat ustavi jamiyatning huquqiy maqomi va jamiyat faoliyatini tashkil etish tartibini belgilab beruvchi ta'xis hujjati hisoblanadi" degan qo'shimcha kiritish maqsadga muvofiq. Amaldagi fuqarolik qonunchiligi yuridik shaxslarning huquq layoqatini haddan tashqari cheklaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F-5464-son farmoyishi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasining I bo'limi 5-bandida Fuqarolik-huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishga to'sqinlik qiluvchi fuqarolik qonunchiligidagi huquqiy bo'shliqlar va kolliziyalarni bartaraf etish nazarda tutilgan. Shuni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 41-moddasiga quyidagi o'zgartirish kiritilishini taklif qilamiz:

Yuridik shaxs ham jismoniy shaxs ega bo'lishi mumkin bo'lgan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi (fuqarolik huquq layoqati), tabiatiga ko'ra faqat insonga tegishli bo'lishi mumkin huquq va majburiyatlar bundan mustasno. Qonunda yuridik shaxslarning ayrim turlariga nisbatan maxsus huquq layoqati va uning doirasi belgilanishi mumkin. Mazkur Qonunning 10-moddasiga ko'ra, jamiyat ustavini tasdiqlash to'g'risidagi qaror, shuningdek, jamiyat muassislari kiritadigan hissalarining pul bahosini tasdiqlash to'g'risidagi qaror muassislar tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi belgilangan, biroq amaliyotda ushbu toifadagi qarorlar qabul qilinmaydi. Aksincha, jamiyatning ta'xis hujjatlarini tasdiqlashdan oldingi jarayon sifatida muassis bitta bo'lgan taqdirida ta'xis etish qarori, muassislar ikki yoki undan ortiq bo'lsa ta'xis etish bayonnomasi tasdiqlanadi. Ta'xis etish qarori yoki ta'xis etish bayonnomasida quyidagilar nazarda tutiladi:

1) jamiyatni ta'xis etish, shug'ullanadigan asosiy faoliyat turini aniqlab olish, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, pochta manzilini tasdiqlash;

2) jamiyatning nomi, shtamp va dumaloq muhrini tasdiqlash;

3) jamiyat ustav fondining miqdori va muassislarning tarkibi va har bir muassis ulushining miqdori va nominal qiymatini tasdiqlash;

4) jamiyatning ta'sis shartnomasi va ustavini tasdiqlash (muassis bitta bo'lsa faqat ustav);

5) jamiyatning boshqaruv organlari va boshqaruvchilarini tayinlash;

6) tashkiliy masalalarni hal etish: jamiyatni vakolatli davlat organidan ro'yxatdan o'tkazish topshirig'i yuklatiladi.

Fikrimizcha, ta'sis etish qarori yoki ta'sis etish bayonnomasini tasdiqlash jarayonni bevosita jamiyatning ta'sis hujjatlarini tasdiqlashdan oldingi bosqich va ta'sis hujjatlarini vujudga keltiruvchi asos deb baholaymiz.

Amaldagi fuqarolik qonunchiligida ta'sis etish qarori yoki ta'sis etish bayonnomasi to'g'risida alohida qoidalar belgilanmaganligi hozirda tadbirkorlik faoliyatini boshlash arafasida turgan shaxslar va ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshirayotgan shaxslar uchun tushunmovchilik tug'dirmoqda. Sababi ro'yxatdan o'tkazish jarayonida ta'sis hujjatlaridan tashqari aynan ta'sis etish qarori yoki ta'sis etish bayonnomasini vakolatli davlat organi, ya'ni davlat xizmatlari markaziga taqdim etish majburiyati tadbirkor zimmasida.

Xulosalar

Xulosa va taklif o'rnida shuni aytib o'tish joizki, MCHJ ta'sis hujjatlari va vujudga kelish asoslariga yuridik tavsif berilishi va ularning huquqiy tabiati ochib berilishi kerak. Amaldagi fuqarolik qonun-

chiligida MCHJning ta'sis hujjatlari sifatida ustav va ta'sis shartnomasi nazarda tutilgan. Biroq, ta'sis etish qarori, ta'sis etish bayonnomasi va jamiyat ishtirokchilari o'rtasidagi boshqa kelishuvlari xususida alohida qoidalar belgilanmagan. Vaholanki, ta'sis etish qarori yoki ta'sis etish bayonnomasini tasdiqlash jarayonni bevosita jamiyatning ta'sis hujjatlarini tasdiqlashdan oldingi bosqich va ta'sis hujjatlarini vujudga keltiruvchi asos bo'lib xizmat qiladi.

MCHJni tashkil etishda ta'sis hujjatlari uchun umumiy bo'lgan qoidalar mavjud emasligi, ularni talqin etish va qo'llash turli xil yondashuvlarni vujudga keltiradi. Shu bois MCHJlarning ta'sis hujjatlariga oid Fuqarolik kodeksi normalarini ta'sis etish qarori yoki ta'sis etish bayonnomasi qoidalar bilan to'ldirish lozim.

Bundan tashqari, amaliyotda aksariyat tadbirkorlik subyektlari ta'sis shartnomasi va ustav mazmunini bir xil mazmunda qilib tuzishadi. Fikrimizcha, ushbu holat yuridik jihatdan noto'g'ri deb hisoblaymiz. Yoqoridagi tushunmovchilikni bartaraf etish maqsadida "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasiga "ta'sis shartnomasi muassislarning huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi ta'sis hujjati hisoblanadi", 13-moddasiga esa "jamiyat ustavi jamiyatning huquqiy maqomi va jamiyat faoliyatini tashkil etish tartibini belgilab beruvchi ta'sis hujjati hisoblanadi" degan qo'shimcha kiritish maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. Rahmonqulov H.R. Fuqarolik huquqining sub'ektlari. O'quv qo'llanma [Subjects of civil law. Study guide]. Tashkent, TSUL, 2008, p. 67.
